



MUYASSAR TILOVOVA

BURGUTLAR

Hikoyalar



TOSHKENT
«ADIB» NASHRIYOTI
2011

УДК: 821.512.133-3

ББК: 84(5Ў)6

Т49

Ushbu kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Yoshlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan nashrga tavsiya
etilgan.

Tilolova, Muyassar.

Т49 **Burgutlar:** hikoyalar / M.Tilolova.— T.: ADIB
nashriyoti 2011. — 96 bet.
ISBN 978-9943-317-45-1

УДК: 821.512.133-3

ББК: 84(5Ў)6

ISBN 978-9943-317-45-1

© «ADIB» nashriyoti, 2011

© M.Tilovova, 2011

EZGU AN'ANA

Yurtimizning turli hududlarida yashab, she'r va hikoyalar mashq qilib kelayotgan, adabiyot ostonasiga o'zlarining ilk qadamlarini qo'yayotgan iqtidorli yoshlarimiz minglab topiladi. Bugun boshlovchi misralar yozib, tahririyatlarga yoki ustoz adiblar qoshiga imanibgina borayotgan bu yigit-qizlar ertangi kunimizning taniqli yozuvchi va shoirlariga aylansa, ajab emas.

Muhtaram Yurtboshimizning "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli risolasida "agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tanishtirish uchun o'zining
uni
nbor
larni

tarbiyalashimiz kerak", degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida ta'kidlangani bejiz emas. Bugungi barcha g'amxo'rlik va e'tibor ana shu maqsad ro'yobiga qaratilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan daslabki kunlardanoq yoshlar siyosati eng birlamchi masalalardan biriga aylandi. Mana, yigirma yildirki, ushbu muhim masala kun tartibidan tushgani yo'q. Aksincha, yildan yilga yoshlar qatlamiga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Shu ma'noda, o'tkir didli, badiiy saviyasi yuksak yosh ijodkorlarni tarbiyalash

uchun yaratilgan bugungi sharoitlarni hech bir davr bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Ana shu yuksak e'tibor samarasi o'laroq, o'tgan 2010 yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va "Ijod" jamoat fondi tomonidan bir guruh yosh shoir, yozuvchi, publitsist va adabiyotshunoslarning ilk kitoblari nashr etilgani va barcha ta'lim muassasalariga bepul tarqatilganidan yurt-doshlarimiz yaxshi xabardor. Ezgu an'anaga aylanib ulgurgan "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida bu yil ham badiiy adabiyotning turli yo'nalishlarida ijod qilib kelayotgan iste'dodli yoshlarning ilk kitoblari nashrga tayyorlandi. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu ijodkorlar "Do'rmon" ijod uyida o'tkazilgan seminarlarda tanlab-saralab olindi, qo'lyozmalar o'sha joyning o'zida - ustoz va shogirdlik an'anasi asosida qiyomiga yetkazildi.

Qo'lingizdagi mana shu kitob ham o'sha mashaqqatli va serzavq mehnatning mevasi, umidli yosh ijodkorning dastlabki qadamidir.

BURGUTLAR

Yarim soatcha oldin bahor yomg'iri toshlar yuzini yuvib o'tgan. Quyuq o'tloqdagi maysalar bargida yomg'irning marjon-marjon zarralari yiltirab turibdi. Ertalabdan beri qo'rada qamalib, ochiqqan qo'y-echkilar yaylovga yoyilib ketdi. Ko'katlar nam bo'lgani uchun bobom bilan katta xarsangning ustiga o'tirib, ularni kuzatyapmiz. Tepamizda — juda balandda burgut kichik qora nuqtaga o'xshab, qanot qoqmay aylanadi. Uning parvozi xuddi tiniq osmon bag'ridagi ulug'vor raqsga o'xshaydi.

Bobom hadeb tepaga tikilaverganidan bo'yni tolib ketdi, shekilli, qo'llarini boshining orqasiga qo'yib, chalqancha yotib oldi. U Mag'rurga qaragan payti hatto kiprik ham qoqmaydi. Mag'rur — bu bizning tog'larda yashaydigan katta ona burgutning nomi. U endi uchishni o'rganib, osmonda ko'rina boshlagan paytlarda bobom shunday atagan ekan. Keyinchalik qishloqdagilar ham uni shunday deb aytadigan bo'lishdi. Chunki vaqt o'tib, u chindanda navqiron, yovqur, tog'larning haqiqiy hukmdoriga aylangandi.

— Qara, o'z sarhadlarini himoya qilyapti, — dedi bobom burgutdan ko'z uzmay yotarkan.

— Nima? — dedim bobom tarafga o'girilib.

— Burgutni aytyapman. Osmondan turib, uyini qo‘riqlayapti.

— Bobo, unga bunday qilishning nima keragi bor?

— Qishloqdagilar Mag‘urni polaponlagan deyishyapti. U chindan ham bolalagan. Chunki shu paytgacha bunchalik sergak bo‘lmagan. Bolalaganda u juda hushyor bo‘ladi. Odamlar o‘zlaricha u haqda qo‘rqinchli gaplarni to‘qib tashlagan. Aslida, u juda beozor qush. Lekin bolalarini hammadan qizg‘anadi. U — haqiqiy ona.

Bobomning shunchalik to‘lqinlanib gapirishi meni sehlrab qo‘ydi. Uning burgutlar haqidagi hikoyalarini ming martalab eshitganman. Hammasi bir xil-u, lekin baribir qiziqarli. Keksayib qolgani uchun ba‘zida aytayotgan hikoyasining davomini esdan chiqarib qo‘yadi. Men ataylab o‘zimni bilmaganga olib, uning nima bilan tugaganini so‘rayveraman. Bobom o‘ylay-o‘ylay, nihoyat kalavaning uchini topib, tag‘in so‘zlay boshlaydi.

— Bobo, har bir tog‘da bittadan burgut yashaydimi?

— Yo‘q, ular ko‘p bo‘ladi. Ilgari bizning tog‘larda ham Mag‘urning ajdodlari ko‘p edi. Osmonda hozirgidek bitta emas, uch-to‘rttasi uchib yurardi. Keyin odamlar ularni ovlashdi. Nasli toza tog‘ burguti bo‘lgani uchun hayvonlar bog‘iga deb olib ketishdi, tsirkkami deb olib ketishdi. Ulug‘ burgutlar naslidan faqatgina shu Mag‘rur qoldi.

Bobomning qorachilarida allanechuk achinish, afsus va birozgina armon bor edi.

— Burgutning uyi qayerda? - so‘radim.

— Anig‘ini hech kim bilmaydi. Ular uyini odamtopmas cho‘qqilar bag‘riga qurishadi. Burgutning burgutligi ham

shunda. Hech kimni tan olmaydi. Hech kim bilan kelishmaydi. Yolg'iz va mag'rur hayot kechiradi. Shu hayoti deb ko'plari qirilib ketdi.

— Uning uyini topishni xohlarmidingiz?

Bobom og'ir xo'rsinib qo'ydi:

— Esimni taniganimdan beri faqat shuni orzu qilaman. Otam rahmatli burgut makonini bilardi. Lekin uning qaerdaligini hech kimga aytmay, o'zi bilan qabrga olib ketdi. U odamlarni burgutga ozor berishini istamasdi. Shuning uchun menga ham aytmagan. Lekin bilganimda ham foydasi yo'q.

— Nimaga?

— Chunki otam taniydigan burgut o'zidan nasl ham qoldirmay, o'lib ketgan. Ammo bu quruq gap. Mag'rur uning avlodi. Xuddi otamning burgutidek o'ktam. Odamlarda g'alati odat bor. Kimning burguti bo'lsa, o'sha omadli e mish. Burgutning uyini otamdan kimlar so'ramadi deysan? Lekin otam hech kimga aytmadi. Eh-he, qancha burgut ovlari uyushtirilgan... Ularni xuddi chumchuqdek otganlarini ko'rganman. Yerga qulaganda ham to jon bermagunicha o'zlariga hech kimni yaqinlashtirishmasdi.

Bobom qo'llarini e'tiborsiz silkib qo'ydi. Bu, albatta, norozilik edi.

Kun tushdan og'a boshlaganda burgut g'oyib bo'ldi. Osmon bulutlashib, havo ayniyotgandi.

— Jala bo'ladiganga o'xshaydi. Qo'ylar chaqmoqdan hurkib ketmasin, qishloqqa qaytamiz, — dedi bobom.

Biz qanchalik shoshilmaylik, baribir, ulgurolmadik. Chaqmoq chaqib, momaqaldiraq gumburlay boshladi.

Yomg'ir sharros quymayotgan bo'lsa-da, har holda, maydalab yog'ayotgan edi. Podani haydab kelarkanmiz, qo'raga yaqin qolganda, yigirmatacha echkinning yo'qligini payqadik.

— O'tlab ketibdi-da jonivorlar. Hali yaylovdan uzoqqa ketmagan. Men izlab kelaman, — deya ortiga burildi bobom.

— Men ham siz bilan.

— Yo'q. Sen qolganlarini olib ketaver. Tag'in ular ham hurkib ketmasin.

Men noiloj bobomning aytganini qildim.

Qo'ylarni qo'raga qamab bo'lganimizda shom tushgandi. Yomg'ir kuchayib, tund havo bo'lganidan qorong'i tez tushdi. Ammo bobomdan haliyam darak yo'q. Zaminga tun cho'kdi. Hamma xavotirda, bobom kelmayapti. Buning ustiga, juda izg'irin, bobomning egnida esa yengil yaktakdan boshqa narsa yo'q. Otam va akalarim yaylovni bir necha marta aylanib, bobomni topolmay kelishdi. Otam nima qilishini bilmay, qishloqning baquvvat ikki yigitini olib, dara tomonni izlab kelishga shaylanayotgan ham ediki, ko'cha boshidan echkilarning ma'ragani eshitildi. Hamma otilib chiqdi. Adashgan echkilarimiz bilan izma-iz bobom ham kirib keldi.

Uning ahvoliga qarab bo'lmasdi. Sovuqdan ko'kar-gan lablari pir-pir uchardi. Ammo negadir yaktagini echib, qo'liga olgan, uni yomg'irda kaftlari bilan pana qilardi.

Xavotirdan yuragi yorilayozgan otam bobomga qarab baqirib yubordi:

— Ota, ketsa-ketar echkilar. Shunday havoda izlab, sizga zarilmidi?

Bobom hech kimga e'tibor bermay, qo'lidagi narsaga mehr bilan tikilarkan:

— Men Mag'urning uyini ko'rdim. Qora cho'qqida ekan. Uni qanday ustalik bilan qurganini ko'rsang edi! Naq tik qoyaning bag'rida, — dedi.

Mag'urning nomini eshitib, hamma bobomga «yalt» etib qaradi.

— U ikkita polaponlabdi. Ikki buyuk burgut nasli. O'zi shunaqa, nasli tozalar kam polaponlaydi.

Bobom yaktagini avaylab ochdi. Orasidan tovuqdan sal kichikroq burgut bolasi chiqdi. U hali ucholmasdi. Faqat qanotlarini pitirlatardi, xolos.

— Burgut bolasi-ku, — otam uning tumshug'ini siladi.

Burgutchi to'satdan otamning barmog'ini cho'qib oldi.

— Ko'rdingmi, bu Mag'urning avlodi. Haqiqiy tog' burguti. U odamlarni tan olmaydi, — dedi bobom cho'chib qo'lini tortib olgan otamga.

So'ng patlari hurpaygan polaponchani silab qo'ydi.

— Echkilarni qidirib yurganimda ko'rib qoldim. Baxtinga Mag'rur sezmay qoldi.

Kiyimlarini almashtirgach, juda charchagan ekanmi, qotib uxlab qoldi.

* * *

Ertalab barvaqt uyg'ondim. Derazadan qaraganimda bobom hovlida osmonga tikilib, u yoqdan-bu yoqqa yurardi. Oldiga yaqinlashib, osmonga qarasam, uyimiz ustida Mag'rur uchib yuribdi! Lekin nimadaidir bezovtalangandek har zamonda qanot qoqib qo'yadi.

— Bilibdimi? — dedim xavotirlanib.

Bobom kelganimni sezdi, shekilli, menga qaramay javob berdi.

— Ha. Jonivor juda sezgir bo'ladi-da. Ammo polaponini bermayman. Qariganimda Xudo menga burgut ato qildi. Uni Mag'rurdek voyaga etkazaman, — deya bobom qandaydir qaysarlik bilan so'zlardi. So'ng osmonga qarab gapida davom etdi: — Hozircha sen narigi bolangni katta qil. Bunisidan xavotirlanma, uni asrashga so'z beraman, Mag'rur!

— Bobo, nimaga uning ikkita bolasini ham olma-dingiz?

— Burgutlar juda qasoskor bo'lishadi. Agar ikkisini ham olib kelsam, Mag'rur bizni tinch qo'ymasligi aniq. Hozir qolgan bitta bolasi uchun o'zini o'tga-cho'qqa urmaydi. Lekin, qara, shundayam topib kelibdi.

Oradan bir oycha vaqt o'tdi. Polaponga yaxshi sharoit yaratib berdik. Uning erkin yashashi uchun kattaroq qafas yasatdik. Burgut bolasi ham ancha o'sdi. Qafas torlik qilgach, kattarog'ini yasattirdik. Lekin bobom uni tashqariga kam olib chiqardi. Mag'rurdan qo'rqardi. Mag'rur ham shu vaqt ichida tepamizda aylanishni biror kun kanda qilmadi. Ora-sirada juda qo'rqinchli qichqirib qo'yardi. Uning ovozida burgutga xos vahima, buyuklik, lekin ojizgina ona allasiga o'xshash mung bor edi. Bobom Mag'rurning bolasiga «Buyuk» deb nom qo'ydi. U chindan ham onasiga quyib qo'ygandek o'xshardi. Faqat jussasi hali kichkina.

Bir kuni otam bilan amakim Buyukni tashqariga olib chiqishdi. Bobomdan ochiq havoda biroz tursin,

deb ruxsat olishgandi. Bu har kungi odat bo'lganidan bobom rozi bo'ldi. Oradan bir soatcha vaqt o'tib, men hovliga chiqdim. Lekin hech narsaga tushunmadim. Hovli o'rtasida qafasga solingan Buyuk yolg'iz turardi. Kattalar uni unutibdi chog'i. Men ichkariga kiritib qo'yish uchun Buyuk tomonga yurdim. Ammo kimningdir qo'llari meni qo'yib yubormadi. O'girilib qarasam: amakim. U kishi ko'rsatkich barmog'ini labi ustiga qo'yib, «jim» ishorasini qildi. Tushunmasam-da, jim bo'ldim. Shu payt ko'zim osmondan shiddat bilan pastlayotgan qora ko'lankaga tushdi. Avvaliga nimaligini ilg'amadim. Biroq keyin... U Mag'rur edi. Sezdim, u bolasini olib ketmoqchi. Barchasi tez sodir bo'layotganidan tushunarsiz edi. U panjalari bilan qafasga tashlandi. Buyuk ketdi, deb o'yladim. Lekin bunday bo'lmadi. Mag'rur endi ko'tarilganida ustiga qaerdandir to'r tushdi. To'r ham uning to'rt tomonini chirmab tashladi. Samoda haqiqiy jang ketayotgandi. Mag'rur o'ralib qolgan qanotlarida uchish og'ir bo'lsa-da, harakat qildi. Buning ustiga, qafasdagi Buyuk ham uning olislashiga to'sqinlik qilayotgan edi. Agar to'rning bir uchi otam va amakimning qo'lida bo'lmaganida, u ancha uzoqqa keta olardi. U shunday bo'lsa-da, harakat qildi. O'zini charchaganday ko'rsatib, biroz pastlar, yerga etay deganida, yana zo'r berib qanot qoqardi. U taslim bo'lmoqchi emas. Bu unga xos xislat. Men bu jangdan karaxt bo'lib qoldim. Mag'rur ayanchli qichqirdi. Hech qanday yordam yo'qligini bilsa-da, u nimagadir iltijo qildi. O'sha payt esimda qolganini hisoblasam, yarim soatdan ortiq jang bo'libdi.

Nihoyat, u gursillab yerga quladi.

— Bobo, bobojon, Magʻrur... — degancha men ichkariga yugurdim.

Uxlayotgan bobom choʻchib koʻzlarini ochdi. Men qoʻllaridan tortib tashqariga imladim. U kishi munkillab yugurdi. Tashqarida toʻrga oʻralib, ayanchli ahvolda yotgan Magʻrurni koʻrib, boʻshashganidan devorga suyanib qoldi.

— Ota, bobomning mazasi yoʻq.

Ular qilayotgan ishlarini tashlab, biz tomon yugurishdi.

— Ota, xavotirlanmang, Magʻrur tirik.

— Ahmoq, pastkash...

U oʻzini oqlayotgan amakimga nafratlanib qaradi.

Soʻng bobomning nafasi tiqilib, gapirolmay qoldi. Ogʻziga suv tomizib, oʻziga keltirishdi. Keyin mazasi boʻlmay yotib qoldi. Otam va amakim «Magʻrurni qoʻyib yubordik», deb bobomni aldashdi. Aslida, uni katta qafasga solib, amakimnikiga olib ketishganini men bilaman. Lekin buni bobomga aytolmayman. Chunki shundogʻam ogʻir ahvoli battar yomonlashadi. Uning Magʻrurni qanchalar yaxshi koʻrishini bilaman. Hatto baʼzan bobom va burgutning umri bir-biriga bogʻliqday tuyiladi. Doim bobom bilan Magʻrur bizniki boʻlishini orzu qilardim. Endi u yonimizda, ammo bu gʻoliblik menga tatimayapti. Undan koʻra osmonda uchib yurgani yaxshiroq edi. Bulutlardan ham baland, hech kimning qoʻli etmaydigan yuksaklikda.

— Derazadan qara-chi, burgut osmondami?

Bobom toʻshakdan turolmayotgani uchun menga aytdi. Yuragim achishib ketdi. Osmonda hech qanday burgut

yo‘q, bo‘lmaydi ham. Hozir Mag‘rur te mir qafasda, ma‘yus ko‘zlarini cho‘qqilar tomon qadab o‘tiribdi.

— Ha, ana. Uchishini ko‘ryapsizmi, bobo? Avvalgidek juda balandda. Ko‘zga arang tashlanadi.

Bobom miyig‘ida kulib qo‘ydi:

— Yaramaslar...

Biroz jimlikdan keyin aytgan gapi shu bo‘ldi.

— Dunyoda odamzodday chirkin maxluq yo‘q. Joni-vorni onalik mehridan foydalanib, qo‘lga olishdi-ya?.. Mag‘urning aybi ona bo‘lganimi? U farzandini qutqarmoqchi edi. Uning shu ko‘ngilchanligidan foydalani-shdi. Agar Mag‘rur ona bo‘lmaganida, odamlar uni hech qachon tutisholmasdi.

Bobom ko‘zlariga yosh oldi. Men ham yig‘lab yuborishdan o‘zimni zo‘rg‘a tiydim. Baribir, osmonda Mag‘rur uchmayotganini va hech qachon uchmasligini bobom bilibdi.

— Uni qutqaraman, qafasidan ozod qilaman... — deya pichirladim-da, xonadan chiqib ketdim.

Shu ketishda amakimnikiga yo‘l oldim. Mag‘rurni tutib olishganiga bir haftadan oshdi. Lekin u og‘ziga bir qultum ham suv olgani yo‘q. Ozganidan patlari hurpayib qolgan. Qafasida qilt etmay o‘tiradi. Ahvoli og‘ir, shekilli, og‘zidan suv oqib turardi. Qishloqning mol do‘xtiri uni «O‘ladi», dedi.

— Esiz, shu savilni qancha kuch sarflab tutibmiz. O‘rta yo‘lda otam bilan munosabatimiz yomonlashib, u kishining sog‘lig‘i og‘irlashgani qoldi.

— Nimasini aytasiz, aka. Bu qanaqasiga Mag‘rur? Turgan-bitgani kasal-ku.

Amakimning noroziligiga otam ham qo'shildi.

Ular burgutni tashqariga, ochiq havoga olib chiqib qo'yishdi.

Men esa bir chekkadan uni chorasizgina kuzatdim: u chindan ham o'lsa kerak. Chunki juda kichrayib qolgan. Hozir ko'rgan odam uni bir hafta avvalgi, shu tog'larning hukmdori Mag'rur ekaniga ishonmaydi. U so'lg'in ko'zlarini yiroqlarga — ustida qorlari oqarib turgan cho'q-qilar tomonga qadadi. Majolsizgina uzun qanotlarini yoydi. Lekin qanotlari qafasga sig'madi. Hatto o'zi xohlaganidek, baralla qanot yozolmadi bechora. U qafasda qanot yozishning imkoni yo'qligini bilsa-da, silkitishdan to'xtamasdi. Nazarimda, u sal jonlangandek bo'ldi. Toza havodan kuchga to'layotganga o'xshardi. Munkayib qolgan gavdasi yana g'oliblarga xos kerildi. Bir haftadan beri tuz totmagan qushga qayerdan kuch yog'ilib kelayotganini men bilmas edim. To'g'rirog'i, bilishga biz odamlarning aqlimiz kaltalik qilardi. Burgut ko'z oldimda havoga ko'tarila boshladi. U qafasdan chiqolmasdi, qafasning ichida qanot qoqdi. Mag'rur pitirlab, o'zi doim intilgan osmoni falakka parvoz qilayotgan edi. Osmon ularni nega chorlashini men tushunayotgandek bo'ldim. U yerda erk bor, ozodlik bor. Burgut tobora balandlab borardi. Esankiraganimdan qafasning og'zini ochishni unutibman. Unga shundog'am juda og'ir. Bir tomondan qanotlari erkin harakat qilolmaydi, ikkinchidan, zil-zambil qafasni ham ko'tarishga majbur. Lekin u uddaladi. Nazarimda, bulutlarga qadar ko'tarildi. Hozir u doim muallaq aylanadigan yuksak manziliga chiqadi. Shunchasini uddalagan bu yovqur qushning qafasdan

qutulib ketishiga ishonardim. Qo'llarimni peshonamga soyabon qilib, ko'kka tikildim. Mag'rur yana doimgidek qora nuqtaga aylangan edi. Quyoshning zarrin nurlaridan ko'zlarim qamashib qoldi. Ko'zim yoshlanib ketayotgan bo'lsa-da, Mag'rurni ilg'ashga harakat qildim. Chunki uning yana osmonda ekanidan quvonardim.

— Endi osmoningdan tushma, Mag'rur!

Turgan joyimda sakrab, qo'llarimni silkitdim.

Ammo kutilmaganda hammasi o'zgarib ketdi. Yoki men adashyapman. U qancha qiynalib balandlagan bo'lsa, shunchalik tez pastladi.

— Nahotki u qulayotgan bo'lsa?! Yo'q, bo'lishi mumkin emas! Yo'q...

Shiddat bilan pastlayotgan qafasni tutib olishga harakat qilardim. Qulochimni katta ochib, qafasning mo'ljalini oldim. Biroq kimdir qo'llarimni mahkam ushlab tortdi. Ne ko'z bilan ko'rayki, men uydan chiqayotganimda to'shagidan turolmay yotgan bobom edi.

— Shunday bo'lishi kerak. Burgutning umri shu. Uni qutqaraman deb, o'zingni halok qilma. Menimcha, bu burgutga munosib qismat. Burgut bo'lib tug'ilganlar o'limini ham burgutday qarshilaydi.

Bobom meni bag'riga bosgancha yerga yaqinlashib qolgan burgutga teskari qaradi. Uni qutqarmoqchi bo'lib, bobomning qo'llaridan yulqinib chiqishga harakat qildim. Ammo bobom qo'yib yubormadilar. Ko'z o'ngimda burgut erga quladi. Yerga tushganida olam zirillab ketganday bo'ldi, nazarimda. Dunyoni bir lahza dahshatli chinqiriq tutib ketdi. Mag'rur halok bo'ldi. Uning parcha-parcha

bo‘lib yotganini ko‘rishga dosh berolmasdik. Qaytdik. Uyga yetib kelgunimizcha «churq» etmadik.

— Xafa bo‘lma, bolam. Buyuk burgut avlodidan bitta nasl qolgan. Endi osmonga u hukmronlik qiladi.

— Buyukni aytyapsizmi?

— Ha, bizning Buyukni!

— Ikkita, deng... Tog‘da qolgan polaponcha-chi?

Bobom chuqur xo‘rsindi:

— Sen Buyukka qara. U bironing yordamisiz mustaqil ov qilolmaydi. Tog‘dagi polapon ham u tengi. Mag‘rur esa bir haftadan ziyod tutqunlikda qolib ketdi. Ikkinchi bolasini biror narsa eb ketgan yoki ochlikdan o‘lib qolgandir...

«Nega shunga aqlim yetmadi ekan?» — deb o‘yladim. Biz Mag‘urning ikkinchi zurriyodidan ham umidimizni uzdik.

— Gaping to‘g‘riga o‘xshaydi, bolam. Har bir tog‘da bittadan hukmdor bo‘lgani yaxshi. Biz Buyukni uchishga o‘rgatishimiz kerak. Endi uni olib ketadigan onasi yo‘q. Bemalol o‘rgataveramiz.

— Uchishni yaxshi o‘rganib, ketib qolsa-chi?

— Burgutlarning haqiqiy makoni tog‘lar, osmon, cho‘qqilar. Ketishi aniq. Lekin, baribir, u bizning burgut. Mag‘rur va uning bir poloponi mening aybim bilan halok bo‘lishdi. Lekin xudo shohid, men buni istamagan edim.

Uyga yetib kelgan zahoti Buyukni tashqariga olib chiqib, qafasni ochdik. Hozir Buyuk pitirlab chiqadi-da, osmonga parvoz qiladi. Qafasni ochgach, daraxt soyasida kuzatib o‘tirgan bobomning yoniga borib cho‘kdim. Ammo

Buyuk qafasdan chiqishni xayoliga ham keltirmasdi. Juda hayron bo'ldim. Borib uni ushlab tashqariga chiqardim. Qo'linga olib, ohistagina osmonga otdim. U qanotlarini pitirlatgancha yerga qaytib tushdi. Bir necha marta buni takrorladim, lekin har gal shunday bo'ldi.

Bobom meni yoniga imladi:

— Uni o'z holiga qo'y. Biroz atrofni o'rgansin, keyin ucha boshlaydi.

Buyuk esa lapanglab u yoq-bu yoqqa yurdi. O'tkir tumshug'i bilan o'tlarni cho'qilab ko'rdi. Qiziqsinib atrofga qaradi-yu, yana qafas yoniga qaytdi va jimgina qafasga kirib ketdi.

Bobom ikkimiz hang-u mangmiz. To'satdan bobom bo'shashib, yerga cho'kkaladi. Ko'zlarini Buyukdan uzmay, ho'ngrab yig'lab yubordi:

— Men qari ahmoqman. Men xato qilib qo'ydim. Buyuk burgut naslini voyaga yetkazmoqchi edim. Ammo Mag'urning avlodini emas, itoatkor qulni o'stiribman. Buyuk burgut nasliga men qiron keltirdim...

Hozirgacha tog'lardagi o'ktam burgutdan bitta bo'lsa ham qolgan, deb o'ylagan edim. Biroq Buyukning qafasda bizga hayron tikilib turganini ko'rib, ular tamom bo'lganini angladim. Bobomdek ho'ngrab yig'lamayotgan bo'lsam-da, yuragim qattiq o'rtanardi.

QORAG'ORDAGI OV

Kattalar menga shart qo'yishdi. Ularning safiga kirish uchun uzun suv ilonini tutib, Qulmat oqsoqning bo'yniga ilishim kerak. Bu unchalik qiyin emas. Qulmat oqsoq juda yuvosh chol. Birovga qattiq gapirmaydi. Ko'zlari o'tmaslashganidan katta ko'zoynagini taqib, kulbasi atrofini aylanib yuradi. Orqasidan soyaday ergashib ketaversang ham sezmaydi. Yoki sezsa ham e'tibor bermaydi. Shuning uchun uning bo'yniga ilon ilish menga cho't emas. Ammo ilonni tutishkerak-da. To'g'ri, suv iloni chaqmaydi. Lekin chaqadimi, chaqmaydimi, baribir, u ilon-ku, sovuq basharasiga ko'zim tushishi bilan etim junjikib ketadi. Anhorga tikilib o'ylanib qoldim. Agar shu ishni eplolsam, manavi ko'm-ko'k, tipt-tiniq suvda kattalar bilan birga cho'milish menga nasib etadi.

— Qo'rqyapsanmi, yigit? — dedi qo'lidagi baliqni olovga tutayotgan Rahim aka iljayib. — Seni qara-yu, bizga qo'shilishing uchun oddiygina shart qo'ygandim. Uyaltirib qo'yding-ku. Haliyam qora g'orga kirib chiqasan de maganimga shukur qil.

Qora g'or so'zini eshitib, yuragim orqaga tortib ketdi. Qora g'or, aslida, g'or emas, anhorning katta yo'l tagidan

o'tgan qismi. Yo'l juda keng bo'lganidan, tunnel ham shunga yarasha uzun. Uzoqdan ichi qop-qorong'i ko'ringanidan, biz uni qora g'or deb ataymiz. U yerga hech kim ataylabdan kirmaydi. Tasodifan oqib ketganlarning hech biri esa tirik chiqmagan. Tunnelga keraverishdagi suv shiddat bilan loyqalanib, ko'piklanib oqadi. Xuddi o'pqonga o'xshaydi. Bor suvni ichiga yutib ketayotgandek. Ammo ajablanarlisi, tunnelning narigi tomonidan chiqayotgan suv tiniq va sokingina oqadi. Bunday joyga kirishning o'zi o'lim bilan teng. Qora g'orga katta bolalardan hali hech kim kira olmagan... hatto tunnel og'ziga yaqinroq joylarda ham biror bola cho'milmaydi. Lekin, kattalarning aytishicha, Rahim aka tunnel og'zigacha suzib borishga tayyorlanayotgan ekan va bu so'zining ustidan albatta chiqar emish. Bunga hech birimiz hayron qolmadik. Chunki katta bolalar ichida eng kuchlisi Rahim aka. Uning suvda qanday cho'milishini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Suv ostiga sho'ng'ib, bir-ikki daqiqa u erda tura oladi. Baliqlarni esa oyoqlari orasida qisib ushlaydi. Ilonni ushlab, chirpirak qilib aylantirishini hayratlanib tomosha qilganman. Xullas, Rahim akaga hammamizning havasimiz keladi.

— Qo'rqma, qora g'orga kir, demayman. U yerga birinchi o'zim kirmoqchiman. Kel, oldin balig'imizdan tatib ko'r, keyin ilon quvlaysan.

Rahim akaning gapidan so'ng barcha bolalar kulib yuborishdi. U kishi esa meni izza qilishni xohlamay, ularga jim ishorasini qilib, qo'lini silkitib, meni yoniga imladi. Alohida e'tiboridan xursand bo'lib, bolalar orasiga

borib o'tirdim. Birinchi kundan ovqatga taklif qilinganimga boshqalar ko'zlarini ola qilib qarashdi. Menga hasadlari kelayotganiga aniq ishonch hosil qilgach, mamnunligimni bildirmay, yaxshiroq joylashib oldim. Qo'limdagi oxirgi baliq olovda qizargach, Rahim aka Otajonga dedi:

— Bor, avval pishganlarini olib kel, ovqatlanamiz.

Otajon Qulmat oqsoqning yolg'izgina nabirasi. Sakkiz yoshli, qotmadan kelgan, ozg'in, xunukkina bola. Chaqaloqligida otasi o'lgan, onasi esa uni bobosiga tashlab, boshqa kishi bilan turmush qurib ketgan ekan. Shundan buyon anhorning narigi tomonida dashtlikka tutashib ketgan joyda, to'kilib tushay deb turgan uylarida bobosi bilan yolg'iz yashaydi.

Qishlog'imiz katta. Bu anhor esa uning bir chekkasidan oqib o'tadi. Anhorning bir sohilida qishloq, ikkinchi sohilidan esa cheksizlikka ulanib ketgan dashtlik boshlanadi. Anhor juda keng va chuqur bo'lganidan unda faqat ikkitagina cho'miladigan joy bor. Biri ancha keng, sayozlik, unda kichkina bolalar cho'miladi. Eng yaxshi ikkinchi joyi esa katta bolalarniki. Katta bolalarga qo'shilish qiyin. Mana, men o'zim, necha kundan beri ularning oldiga kelishga jur'at etolmay, nihoyat, bir amallab kelib qo'shildim. Otajonchi, hali yosh bola bo'lsa ham, bir necha yildan beri kattalar bilan birga. Kattalar ham unga «ket» deyishmaydi. To'g'ri, u faqat qirg'oqda cho'miladi, boshqalar kabi anhorning o'rtasiga kirmaydi. Faqat katta bolalarning mayda-chuyda ishlarini qilib yuradi. Biroq shuning o'zi ham katta gap. To'rtinchi sinfga o'tgan bo'lsam-da, hali ham ularga qo'shilolmaganimdan Otajonga hasad bilan qarardim. Atrof-dagilar bir-biriga hazil qilib, Otajonga e'tibor bermay

turishganda, men ko'zlarim osti bilan uni kuzatdim. U bizdan yetti-sakkiz metr naridagi pishgan baliqlar yoniga borgach, negadir o'sha yerda kuymalanib qoldi. Voy pismiq, u eng katta baliqlardan birini sohildagi qumloq tuproq ostiga ko'mardi. Otajon bizga teskari o'tirgani uchun xuddi baliqlarni taxlayotganga o'xshardi. U bu o'g'rilikni shunchalik chaqqon bajarganidan sezish qiyin edi. Baliqni ko'mib bo'lgach, qolganlarini ko'tarib, yonimizga keldi.

— Uka, bu yoqdan o'tir.

Rahim akaning Otajonga o'z yonidan joy bergani menga qattiq alam qildi.

«Nimaga endi bu o'g'rini ardoqlashlari kerak ekan? Hozir hammaning oldida aybini aytsam, bolalar undan xafa bo'ladi, menga bo'lsa ishonchlari ortadi. Balki, saflariga kirish uchun qo'yg'an shartlarini engillatishar», deb o'yladim.

— Otajon katta bir baliqni o'g'irladi. Hozirgina o'zim ko'rdim.

Hamma yalt etib menga qaradi. Rahim aka ham. Ularning e'tiborini torta oldim.

— Ha, qumning ostiga ko'mib keldi, — dedim va Otajonning ahvolini tomosha qilish uchun unga qaradim.

Otajon og'zidagi go'shtni chaynashdan to'xtagan, ko'zlari pirillab turardi. Qo'rqqanidan rangi o'zgarib, labi ham bilinar-bilinmas titrab ketdi. Ko'zlarini katta-katta ochib javdiragancha, o'ziga yeb qo'ygudek qarab turgan bolalarga termildi.

— Rostmi shu, baliq o'g'irladingmi? Oldingi odating yana boshlandimi? Esingdan chiqdimi, yana o'g'irlasang yaxshilik kutma deganim?

Rahim akaning jiddiy va jahl bilan bergan savolidan Otajon cho‘chib tushdi. Og‘zidagi go‘shni zo‘rg‘a yutib, «yo‘q» degan ishorada boshini sekin-sekin qimir-latdi.

— Aldayapti, Rahim aka. U sizga yolg‘on gapirdi. Baliqni ko‘mganini o‘zim ko‘rdim, — deya gapimni isbotlash uchun o‘rnimdan turdim-da, borib qum ostidan baliqni oldim. Obdon tuproqqa belangan, qum zarralari yopishib qolgan kattagina baliqni keltirib, bolalar oldiga tashladim va g‘alabamdan gerdayib tik turdim.

Rahim aka istehzo bilan labining bir chekkasini cho‘zib kuldi va to‘satdan, zarb bilan Otajonning yuziga musht tushirdi. Kutilmagan zarbadan gangib qolgan bolakay o‘zini yo‘qotib, yerga ag‘anab ketdi. Hamma qotib qoldi. Otajonni o‘rnidan turg‘azishga esa hech kimning jur‘ati yetmasdi. Boshida qilgan ishimdan quvonayotgan bo‘lsam, endi afsuslana boshladim. Chunki Otajonga rahmim kelayotgan edi.

Yerda yotgan bolakay biroz ingradi-yu, yana amallab o‘rnidan turib, qonagan burni va lablariga yopishib qolgan qumni qoqa boshladi.

— Nimaga o‘g‘irlik qilding?

Rahim aka g‘azablanganicha uning qulog‘idan cho‘zib so‘radi.

Otajon hech narsa demadi. Faqat go‘daklarcha tiniq ko‘ziga yosh keldi.

— Sendan so‘rayapman, nimaga o‘g‘irlik qilganingni, gadoyvachcha?

Rahim aka battar asabiylashib baqirdi.

— Uyimizga kelgan doktor amaki: «Bobongning ahvoli chatoq, ko‘zlari xiralashib ketyapti, ko‘proq baliq yeyishi kerak», degan edi. O‘zim baliq tutolmadim.

Otajon ingichka ovozda yig‘lab yubordi.

— Bizga qo‘shilganingdan beri o‘g‘rilik qilasan-a?

Rahim aka uning bilagidan siqib, o‘ziga yaqin tortib so‘radi. Qo‘rqib ketgan Otajon esa ko‘zlarini yerga qadab, tasdiq ishorasini qildi.

— O‘zingdan ko‘r, haromi, nonko‘r.

Rahim aka bor kuchi bilan uni uloqtirdi. Bolakay bir-bir yarim metr nariga uchib borib, chalqanchasiga yiqildi. Bechoraga hamma achinib ketdi. Men esa qilgan ishimdan ich-etimni yer edim. Ammo kech bo‘lgan, qo‘limdan chorasizgina kuzatishdan boshqa hech narsa kelmas edi.

— Menga qara, — Rahim aka erda yotgan Otajon-ning sochlaridan g‘ijimlab, boshini ko‘tardi.

— Esi past bobongga baliq yedirmoqchi bo‘lsang, bundan keyin o‘zing tut. Agar yana shu yerda qorangni ko‘radigan bo‘lsam, Qulmat oqsoqdan oldin o‘zing jahannamga jo‘naysan. Tushundingmi?

Rahim akaning tahdididan so‘ng Otajon indamay keta boshladi.

— To‘xta...

U to‘xtab, ortiga qaradi. Rahim aka tuproqqa belangan baliqni olib silkitdi.

— Buni olib ket. Bersang, bobong ko‘zoynaksiz ham ko‘radigan bo‘lib qoladi.

Otajon orqasiga qaytdi. Kir qo‘llari bilan ko‘z yoshlarini artib, baliqni oldi. U shunisiga ham xursand edi.

— Ha, aytgancha, qora g'orda katta baliq yashaydi. Judayam katta. Agar uni tutib bobonga yedirsang, u avvalgidan ham yaxshi ko'radigan bo'lib qoladi, — dedi Rahim aka.

— Rostdan ham shunaqa baliq yashaydimi? Qora g'orda-ya? — Otajon Rahim akaga hayratlanib qaradi. Uning mo'ltirab turgan ko'zlarida ishonch paydo bo'lgandi.

Bolaning bunchalik ishonuvchanligidan Rahim aka ham sezdirmay kulib qo'ydi.

— Ha, rost, borib o'shani tut.

Otajonning qadam olishi dadillashib, baliqni olib, uyi tomon chopqillab ketdi.

O'sha kuni shartni bajarishga ulgurmadim. Kech tushib qoldi. Kechga yaqin uyga qaytib, tuni bilan o'yladim, ikkilandim. Chunki men ular aytgan shartni bajara olmasdim. Ilondan qo'rqaman, qo'rqmagan taqdirda ham uni tuta olmayman. De mak, kattalarga qo'shili-shimga hali vaqt bor. Ertasiga ular yoniga emas, o'zimning har doimgi joyimga bordim.

Yana o'sha-o'sha manzara. Kelganimdan beri suvdan chiqqanim yo'q. Lekin haligacha miriqib cho'mila olmadim. Chunki tizzadan keladigan suvda miriqib cho'milish qayoqda? Faqat suvni shaloplatib, kechib yurish mumkin. Buning ustiga, bir kechib kelsang, loyqalanganidan tagi ko'rinmay qoladi. Ammo, eng yomoni, o'zi uch-to'rt metr keladigan yerga bolalarning endi oyog'i chiqqanidan tortib, to'rtinchi sinfgacha bo'lganlarning barchasi kelib oladi. Bunday paytda tikka tursang, sig'maydigan ko'l-

makda bor-yo'g'i kechib yurasan. Tushgacha bir martagina suvga tushib kelib, boshqa vaqtimni sohildagi tuproqda cho'zilib o'tkazdim. Issiq elitib, uyquga ketdim. Bexos uyqumni bir necha bolaning baqirib yig'lagan ovozi buzdi. Qarasam, uch yoshlardagi ikki bolaning biri narigi tomonga qarab «Oyijon!», ikkinchisi unga teskari qarab «Dadajon!» deb yig'lardi. Atrofda esa qip-yalang'och bolalar o'zlaricha ularni ovutish bilan ovora. Doim shunday, bu er yosh bolalarniki bo'lgani uchun hammasi yalang'och cho'milishadi. Ularga «Jim bo'li!» deyish befoyda. Qaytaga battar qilishadi. Quloqlarimni berkitib, e'tibor bermaslikka urindim. O'n ikkiga kirgan bo'lsam ham, haligacha shu churvaqalar bilan o'ralashib yurganim alam qildi. Ammo Rahim akaning Otajonga qilgan muomalasini eslaganim sayin kattalar oldiga borishga ikkilanardim. Nima qilish kerak? Yuragim ularga tortardi. Axir Rahim akadan kaltak yeyishga Otajonning o'zi sababchi-ku. O'g'rilik qilib yurgan ekan. Men bunday qilmayman. Demak, borsam bo'ladi. O'ylab-o'ylab, axiyri katta bolalarning oldiga yo'l oldim.

— Ie, ie, keldingmi? Seni ilondan qo'rqib, quyonning rasmini chizdi, deb o'ylovdim.

Rahim akaning gapidan hamma gurillab kulib yubordi. Qizarib ketganimni sezdirmaslik uchun yerga qaradim. Rahim aka o'ninchi sinfni tamomlagan bo'lsa ham, o'zidan katta bolalar undan qo'rqadi. Shuning uchun biror noto'g'ri gap aytib qo'ymaslik uchun jim yurdim.

— Mayli, ilon ushlab, oqsoqning bo'yniga ilaman, — dedim yuragimni hovuchlab.

— Yo‘q, shart o‘zgardi. Endi ilon quvlashingga hojat yo‘q.

Men hayron bo‘lib qaradim. Lekin Rahim aka hazillashmayotgan edi. Uning yuzi jiddiy, bamaylixotir sigaretini tutatardi. To‘satdan qo‘lidagi gugurtni menga uzatdi.

— Qulmat oqsoqning uyi yonidagi yantoq g‘aramini yoqasan. Bog‘iga meva yeyishga tushganimizda, oyoqqa kiriyapti. Qo‘rqma, nabirasi uyda emas, hechkim ko‘rmaydi.

Biroz o‘ylanib qoldim. «Axir menga yomonlik qilmagan odam bo‘lsa, oqsoq bo‘lsa, nima qilibdi? Urushda o‘q tekkan-da. Kattalar bunaqa shartlarni qayoqdan topishar ekan-a?» deb o‘ylanib turganimda, Rahim aka behafsala qo‘l siltadi:

— O‘zi qushdek yuraging bor ekan, bizga qo‘shilaman deb nima qilarding?

Bu gap jon-jonimdan o‘tib ketdi. Qo‘lidan gugurtni yulib oldim va cholning uyiga qarab yurdim. Men alam va shiddat bilan borardim. Anhorning sayoz va axlat to‘planib qolgan joyida Otajonni ko‘rdim. U baliq tutishga urinib yotardi. Holdan toygani, charchaganidan terlab ketayotgani shundoq bilinib turibdi. Ammo qirg‘oqdagi kichkina paqirchada ikki-uchta ko‘rsatkich barmoqday keladigan baliqchalardan boshqa hech narsa yo‘q edi. Unga rahmim keldi. Bunday bo‘lishiga men aybdorman. U meni ko‘rmadi. Faqat xayolimda undan kechirishini so‘radim.

— Ozgina sabr qil, men kattalarga qo‘shilib olay. Har kuni bobongga o‘zim baliq tutib beraman. Ko‘p

yesalar, ko'zlari yaxshi ko'radi, — deya pichirladim o'zimg-o'zim.

Kun juda issiq, quyosh boshimni ayovsiz kuydirardi. Sekin yurib, Qulmat oqsoqning choldevor uyiga yaqinlashdim. Uy atrofiga, boqqa sinchiklab qaradim. Chol ko'rinmadi. Panalab yantoq uyumi orqasiga o'tdim. Gugurt chaqib, sekin tutashtirdim. Lekin olov kutganimdan tezroq yondi. Oftobda tikanlar ich-ichigacha qurib ketganidan faqat bitta uchqunni kutib turganga o'xshardi. Oradan ko'p o'tgani yo'q. Butun to'dani olov qamrab ketdi. Yonida turib terga pishib ketganimdan nariroqqa, daraxtlar soyasiga o'tdim. Negadir olovning chars-chursi, gurillagan ovozi baland eshitilsa ham, choldan darak yo'q edi. Ish silliq bo'lganidan xursand bo'lib, ortimga qayta boshladim. Katta gulxandan ancha uzoqlashib ketdim. Ammo olov pasayishi o'rniga battar alangalanganini sezdim. Chunki ortimda kuchli charsillash va issiq taftini his qildim. Yuragimni hovuchlab ortimga qaradim.

Bo'lishi mumkin emas. Yonayotgan yantoq uyuning olovi cholning uyiga ham tutashgan ekan. Tomi, eshik-derazalarining romi qurib qolganidan uy bir zumda olov ichida qoldi. Men nima qilishimni bilmasdim.

«Chol uyida bo'lsa-ya?..» degan dahshatli fikr xayolimdan o'tdi. Hatto olov komiga kirib, uni qutqarmoqchi ham bo'ldim. Biroq tutuni ko'kka o'rlab yonayotgan uyini ko'rgan chol bog'ning ichidan yugurib chiqdi. Kaftini peshonasiga soya qilib menga qaradi-da, uyi tomonga yurib ketdi. Men qo'rqqanimdan ortimga qaramay yugur-

dim. Chol esa chelak ko'targancha ortimdan munkillab yugurdi. Hech qachon qariyadan bunchalik qo'rqmagan edim. Ko'prikkacha ulgurolmadim. Anhordan suzib o'tishga to'g'ri keldi. Juda shoshib suzardim. Qo'rq-qanimdan anhorning chuqur joyiga kirganimni bilmabman. Suv oqizib keta boshladi. Qancha harakat qilmayin, o'zimni o'nglay olmadim. Oqim butunlay izmiga solib olgandi. Faqat suv betiga bir qalqib nafas olganimni eslayman. Keyin suv ostida qoldim. Hushimga kelganimda, kimdir meni oqim ichidan tortib olib chiqardi. Bu Qulmat bobo edi. U kishi qari bo'lishiga qaramay, meni qutqarish uchun suvga sakragan ekan. Qo'llarimdan tortib sohilgacha qiynalib suzdi. Men o'shanda anhorning bu yerdagi shiddatli to'liqlarini yenggan odamni birinchi marta ko'rganman. Qulmat bobo meni sohilga olib chiqib, orqamga qoqdi. Yutgan suvlarimni chiqarib tashlashga majbur qildi. O'zimga kelganimni bilgach, holsizlanib yerga cho'zildi.

— Bolam, nega mendan qo'rqib qochasan? Men senga nima yomonlik qilaman? Sening izingdanmas, anhordan suv olgani borayotgan edim. Ehtiyot bo'lmaysanmi? Yaxshiyam, vaqtida borib qoldim, — dedi u behol pichirlab.

U shunchalar samimiy gapirdiki, o'sha paytda nimalarni his qilganimni aytib berolmayman. Chol turtinib-surtinib uyi tomonga qarab yurdi. Men ham ergashdim. Qulmat bobo suvga tushgan paytda ko'zoynagini yo'qotgan ekan, uyidan esa olovdan qorayib, so'ppaygan devorlar qolgandi.

Bu voqeadan keyin Qulmat bobo yotib qoldi. Yaqin qarindoshlaridan biri ularni olib ketdi. Qishloqdagilardan eshitishimcha, boboning ko'zlari umuman ko'rmay qolgan e mish. Hozir u kishining bog'i egasiz, o't-o'lanlar bosib ketgan. Uyining vayronalari uzoqdan qarg'ish urgan, xunuk kultepalarga o'xshab ko'rinadi. U yerga har qaraganimda, bu mening gunohim ekanini bilib, ich-ichimdan ezilaman.

Otajonning har kun anhorning sayoz joyida baliq tutib yurganini ko'raman. Unga ko'pincha yordamlashaman. Ammo ikkalamiz ham no'noq baliqchimiz. Kuniga to'rt-beshta mayda-chuyda baliqchalardan boshqa hech vaqo tutolmaymiz. Bechora bola, bobosi ko'proq baliq yesa tuzalib, ko'zlari ko'ra boshlashiga ishonadi. Hali go'dak-da. Unga rahmim kelib, haqiqatni aytay deyman-u, lekin uning hayotdagi birgina ilinji, yolg'iz ishonchidan ham ayirgim kelmadi. Vaqti kelib, tushunib olar.

Ertalab uydan onam shoshilib chiqib ketayotgan ekan. Men qayerga borayotganlarini so'radim.

— Azaga ketyapman. Qulmat boboning nabirasi o'lib qolibdi.

Boshim tars yorilib ketganday bo'ldi.

— A-a?! — dedim onamning qo'llaridan silkib. — Nega, nimaga o'ladi?!

Onam menga hayron bo'lib qarab qo'ydi.

— Jin chaldimi seni, bolam? Tunnelga cho'milgani kirganmish. Shukurki, tirigi bo'lmasayam, o'ligi chiqibdi o'sha yerdan. Tavba, odamlarga ham hayron qolasan.

Yosh bola anhorda sandiroqlab nima qiladi? O‘zi esi sal kirdi-chiqdiroq edi shu bola. Bobosiga o‘xshagan-da.

Onam o‘ziga-o‘zi g‘udranib, ko‘chaga chiqib ketdi. Men boshimni changallab, erga cho‘kkaladim. Ich-ichimdan chidab bo‘lmas darajada iztirobli og‘riq tuydim. Chunki faqatgina men bilaman Otajonning nega qora g‘orga kirganini. U eng katta baliqni tutib, bobosini davolamoqchi edi.



QASAM

Xusrav taqillatmasdan turib, ko'chaga kiraverishdagi bir tabaqasi qiya ochiq turgan darvozadan ichkariga boshini suqdi.

— Yaxshilar, biz bechora gadoylardan xayr-sadaqangizni ayamang...

U doim takrorlayverganidan, hatto uyqusidan uyg'otib so'rasa ham, adashmay aytib beradigan qo'shig'ini boshladi. Ammo bu safar qo'shiq oxiriga etmay qoldi. Berilib aytayotgan yerida, to'satdan, ichkaridan kattaligi novcha Xusravdan ikki barobar keladigan it otilib chiqdi va tashlandi. U dovdirab qolganidan orqasiga «gurs» etib yiqildi. Yunglari hurpaygan, tumshug'i va boshining terilari qat-qat bo'lib ketgan it irillagancha yerda yiqilib yotgan Xusravning yoniga yaqinlashdi. Itning vajohatini ko'rib, Xusravning ko'zlari olayib baqirdi. Xayriyat, it tishlamadi. Faqat oyoqlari ostida yotgan kishiga qarab hurardi. Otasidan ancha orqada qolib ketgan Bashir buni ko'rishi bilan o'sha tomonga yugurdi. Itning vahimali hurishiga qaramay, qo'lidagi xaltasi bilan uni urib haydadi. Ko'chadagi shovqinni eshitib chiqqan uy bekasi yerda ag'anab yotgan Xusrav va o'g'lini ko'rgach, itini ichkariga kirgazib, indamay eshikni yopib qo'ydi.

Yerga qattiqroq tushgan, shekilli, Xusrav oʻrnidan turar ekan, beli va boʻksasini ushlab ingradi. Oʻgʻli esa chang boʻlib ketgan otasining ust-boshini qoqdi. Bu darajadagi ojizlik Xusravga alam qildi, lekin hech narsa deyolmadi ham, hech narsa qilolmadi ham. Ota-bola jimgina yoʻlga tushishdi.

Xusrav keyingi uy yonida toʻxtadi. Yuragini oldirib qoʻygani uchun, eshikni sekin taqillatdi. Hech kim javob bermadi. Sabrsizlanib, qattiqroq taqillatdi. Ammo ichkaridan sado chiqmadi. Ishi yurishmayotganidan hezlanib, kimdan alamini olishni bilmay, atrofga alangladi. Azaldan tilanchilik qilishni xohlamay, otasiga qarshi chiqadigan oʻgʻlini koʻrib tutoqib ketdi. Bashir otasidan nariroqda, daraxt panasida turardi.

Xusrav qoʻshnimizning eshigini koʻrsatib, oʻgʻlini imladi.

— Bashir, bor san, narigi eshikka.

Bola gapirmay, boshini qimirlatib «yoʻq» ishorasini qildi.

— Bor deyapman, sanga.

Bashir qovoqlarini uyib nimalardir deb gʻoʻdrandi:

— Tilanchilik qilmayman.

Xusrav alamini kimdan olishni bilmay, bahona qidirayotgan edi. Oʻgʻlining qaysarligi unga ayni muddao boʻldi. Yelkasidagi toʻrvani yerga tashladi-da, shitob bilan oʻgʻli tomon yurdi. Kela solib, otasidan qoʻrqishtugul, ki prik ham qoqmay turgan oʻgʻlining yuziga tarsaki tortib yubordi.

— Sendan soʻrayapman, aytganimni qilasanmi, yoʻq-mi?

Bola indamadi, u ko‘zlarini yerdan uzmay qotib turardi.

Bashirning bu qilig‘i otasining battar jahlini chiqardi va farzandini ayamay ura boshladi.

— San, bachchag‘ar hali gadoylikdan or qiladigan bo‘ldingmi? Nimani orqasidan non eb katta bo‘lding? Ko‘rnamak.

Xusrav so‘kingancha, xumoridan chiqib bolasini urar, meni esa birinchi marta dushmanim Bashirga rahmim keldi. Agar u «boshqa bunday qilmayman, aytganingizni bajaraman» — desa otasi kaltaklashdan to‘xtaydi. Biroq Bashir bunday qilmadi. U otasining yonida «qilt» etmay turdi. Men bo‘lsa chidolmaganimdan, xonamning ko‘chaga qaragan derazalarini berkitib qo‘ydim.

Ertasiga tushlikka onam mehr bilan tayyorlagan, gurchlari dirillab turgan osh dasturxonga tortildi. Butun oila jam bo‘lgan. Mazali taomni endi tanavvul qilishni boshlaganimizda ko‘cha eshik qiya ochildi. Hamma «yalt» etib o‘sha tomonga qaradi. Itimiz sergak tortib hurishni boshladi-yu, lekin eshikdan bosh suqqan odamni tanigach jim bo‘ldi. Dumini likillatib, daraxt tagidagi nami qurimagan ariqning ichiga, kunning issig‘idan panalab kirib ketdi.

— Iloyim, bu uydan qut-baraka, tinchlik arimasin. Ishlaringizga rivoj, hamyonlaringizga baraka. Farzandlaringiz bilan doimo salomat, o‘ynab-kuling yuring. Bu dunyoda farog‘at, u dunyoda halovat toping. Xudo ikki dunyongizni to‘kis qilsin, yaxshilar!

Darvozadan faqat boshigina ko‘rinib javrayotgan tilanchi edi. Shu ko‘chalarga oralaganda biznikiga kirib o‘tishni kanda qilmaganidan, biz uni yaxshi taniymiz. Ozg‘inligidan

bo'yin suyaklari turtib chiqqan, yuzlarining eti ustixoniga yopishgan, katta-katta yonib turuvchi ko'zlari chuqur cho'kkan, ingichka bo'yining ustidagi mushtdekkina boshi kichkina jussasiga juda mos edi. Qalin, qora sochlari kunning issig'ida terdan bir-biriga yopishib, kirlangan. Ustidagi kiyimlarining ohori to'kilib, dokaday suzilib qolgan. Buning ustiga o'sha kiyimlar gadoyning juda oriq gavdasiga umuman yarashmas edi. Bu bechoraning ismi Xusrav bo'lib, dadam bilan munosabatlari juda yaxshi. Dadam yo'q paytlarda uyimizga kelsa, onam o'zimizdan ortgan biror narsani berib, tezroq qutulish payida bo'ladi. Dadam uydaligida esa, u, albatta, biz bilan o'tirib ovqatlanmaganiga qo'ymaydi.

Dadam chorpoyadan tushmay turib, qo'llari bilan gadoyni imladi:

— Ey, ey keling, Xusravboy. Juda xudo yorlaqagan odamsiz-da. Ayni, oshning ustiga keldingiz. O'zi sizni eslab turgandim. Niyatim xolis ekan, birga ovqatlanadigan bo'ldik.

Xusrav (biz va onam uni yoshi katta bo'lsa ham, yoniga hech qanday jumlani qo'shmay, shunchaki Xusrav deymiz) o'zi ham be mavrid kelib qolganini bilib xijolatlandi. Uyalib yerga qaradi-yu, lekin qizarib ketgani, oftobda kuyganidan yaltirab qolgan yuzlarida bilinmadi.

— Yo'q, okajon. Kirmayman. Shu tomondan o'tib ketayotgandim, bir xabar oldim-da. UZR, bezovta qildim.

Xusrav uzr so'ray-so'ray ortiga tisarildi.

— Bunaqasi ketmaydi, Xusravboy, — dadam o'rnidan turib chorpoyadan pastga tushdi. — Rizqingiz qo'shilgan ekan, tashlab ketish yo'q.

Dadam qistayverib qo'ymaganidan, Xusrav noiloj rozi bo'ldi. Uning biz tomonga kelayotganini ko'rgan onamning qoshlari chimirildi, osh suzib kelgani zarda bilan o'rnidan turayotib, hammaga eshittirib «uf-f» tortdi. Uning bu qilig'ini ko'rgan dadam qovoqlarini uyib, ko'zlarining ostidan yomon qaradi. Xusrav qo'lini yuvgach, dadamning yoniga o'tirdi. Dadam ikkisi uchun boshqa laganda osh olib kelgan onam, sovuqqina qilib salom berdi. So'ngra u bilan bir dasturxonda o'tirib ovqatlanishni istamay, to'yanini bahona qilib turib ketdi.

Ertalabdan beri tuz totmagan, shekilli, Xusrav oshdan yutoqib yer, so'ngra bizni o'ziga hayron qarab turganimizni ko'rib lagandan qo'lini tortdi. Gunoh qilib qo'yan odamday yerga qaradi.

— O'g'ilchangiz ko'rinmaydimi? Yo hozir faqat o'zingiz yuribsizmi?

— Yo'q, u meni kutib turibdi.

— Nima, kutib turibdi? Qayerda? — dadam hayron bo'lganidan og'zidagi oshni chaynashdan to'xtab gapirdi. — Nimaga shuni avvalroq aytmaysiz? Kun tushdan o't-yapti, uniyam qorni ochib ketgandir. Behruz, -dadam menga yuzlandi. — Bor ko'chada turgan Bashirni chaqirib kel.

Menga uni yetaklab kelish yoqmayotgan bo'lsa-da, dadamning jahlidan qo'rqib, o'rnimdan qo'zg'aldim. Boshida-ku, hayron bo'ldim. Doim birga yuradigan otabolaning bugun bittasi ko'rinmayotganiga. Shu Bashirni hech yoqtirmadim, yoqtirmadim-da. Aslida-ku menga yomonligi tegmagan.

Bolaning jussasi otasiga kelishib ketsa-da, u Xusravga nisbatan biroz to'laroq. Tan olish kerak, gavdasi kelishgan. Bo'yi menga qaraganda balandroq. O'zi ozg'in bo'lsa ham, bilaklarining baquvvatligi va chayirligi bilinib turadi. Uning xunuk tomoni terisining qoraligi, lekin nimagadir unga shunisi yarashib turadi. Men yettinchi sinfni tamomladim. Bashir men tengi. Uni maktabga bormasa kerak deb o'ylagandim. U hozir ko'p dars qoldirsa ham, ammo savodi ancha yaxshi ekan.

Ko'chaga qarasam, terga tushib ketgan Bashir uyimizning soyasida o'tirgan ekan. Meni ko'rgach, o'rnidan turib xaltasini ko'tarib nariroqqa ketdi. «Buncha mag'zur bo'lmasa, bu gadoyvachcha», deya xayolimdan o'tkazdim. O'ziga bildirmay ust-boshiga razm soldim. Juda abgor. Shimi eskirganidan ba'zi joylari teshilib qolgan, ustidagi ko'ylagi esa o'zi chirib tushmaguncha yechilmaydi. Yana shu holiga egilgisi kelmaydi.

— Seni dadam ovqatga chaqiryapti. Ichkariga kirarkansan, — dedim unga gapirayotgan bo'lsam-da, boshqa tomonlarga alanglab.

— Yo'q, rahmat. Ovqatlanmayman. Iltimos, otamga ayt, tezroq chiqsin.

Uning gapi g'ashimni keltirdi. To'g'ri-da, boshqalarning eshigidan kirsam, yo o'zlari, yoki iti quvib soladi. Oshga chaqirishayotganiga jon de maydi-ya. Noshukr. Unga boshqa yalinib o'tirgim kelmadi. Hovliga qaytib kirdim.

Ovqat ye mayman dedi,— chorpoya yoniga bormasdan turib baqirdim.

Bashir, hoy Bashir. Amakingga bir qara, — dadam yo‘g‘on ovozda bolani chaqirdi.

Dadamga yuz o‘girib ketolmadi:

— Assalomu alaykum, chaqirdingizmi, amaki?

— Ha-da, nimaga ovqatga kelmaysan? Aytganimni qilib tez bu yoqqa chopqilla.

Noiloj Bashir so‘ljayib chorpoya tomonga yurdi. Istamaygina xontaxtaning bir chekkasiga omonat ilashdi.

— Bu boshqa gap. Qani, Behruzning yonidagi oshga qo‘shil.

Dadamning gapini eshitib, kapalagim uchub ketdi. Ammo noroziligimni ochiq bildirolmadim.

— Yoshingiz teng, Bashirning biroz balandligini hisobga olmasa bo‘yingiz ham teng. Endi, bolam Bashir ikkovning qiyomatli do‘st bo‘linglar. Do‘stning ko‘pi yaxshi-da, yomon kuningda ham, yaxshi kuningda ham yoningda turadi. To‘g‘rimi, — u kulib hammamizga bir-bir qarab oldi. — Sizlar endi bir-biringiz bilan do‘stsizlar.

Dadam bizning oramizdagi kelishmovchiliklarni bilmaydi. Bashir otasining yoniga eshikma-eshik tilanchilik qilib yurishga endi qo‘shilgan paytlari edi. Uni ko‘chada ko‘rib qolishim bilan, albatta, nimadir qitmirlik qilmasam ko‘nglim joyiga tushmasdi. O‘sha paytlar bo‘yim undan baland edi. Shuning uchunmi, o‘zimni undan kuchli deb o‘ylaganman. Lekin bir kuni u charchaganidanmi otasidan orqada qolib ketdi. Men jo‘ralarim bilan anhorda cho‘mi-layotgan edim. U og‘ir qadamlar bilan oldimizdan indamay o‘tib ketdi. Men hushtak chaldim, qaramadi. «Hoy tilan-chi», desam ham qaramadi. E‘tiborsiz yo‘lida davom etdi.

O'shanda bunga e'tibor bermadim, ammo bir gadoyning bizni pisand qilmagani og'aynim Nasimga alam qildi. U hamma bolalarning ichida eng mushtimzo'ri edi.

— To'xta, senga aytyapman, — dedi Bashirning orqasidan biroz yurgan Nasim unga yaqinlashgach.

Bashir to'xtab orqasiga qaradi.

— Kerilishingga qaraganda, bugun oving zo'r bo'lganmi deyman, — Nasim kulib uning elkasidagi xaltaga ishora qildi.

Bashir indamadi.

— Eshitib ol, -o'zicha siyosat qildi Nasim. — Bizni ko'rganingda qo'lingni ko'ksingga qo'yib salom berib o't bundan keyin, tushundingmi? Gadoyvachcha?

Bashir jim. U Nasimning yuziga o'tkir nigohlari bilan tikilib turardi, xolos.

— Gapimni tushunding-a? Agar yana o'zingdan ketsang, seniyam, tilanchi otangniyam qaytib bu ko'chaga kirolmaydigan qilaman.

Nasim hali gapirmoqchi edi. Lekin yuziga kelib tushgan musht zarbidan burnidan tizillab otilgan qon bunga yo'l qo'ymadi. Bolalarning ko'zidan olov chiqib ketayozdi. Uchto'rttasi bir bo'lib Bashirga tashlanishdi. Ammo birgina Bashirning o'zi ularning hammasiga bas keldi. Uning kuchli ekanini bilgandan so'ng, hech kimning yaqinlashishga yuragi dov bermadi. Bashir esa hechnarsa de may to'rvasini ortmoqlagancha yo'lida davom etdi. Biz uning ortidan termilib qolaverdik. Shundan keyin katta bolalarni to'plab, Bashirni anchagacha poyladik. Biroq u ham ataylaganday, anchagacha bu ko'chada ko'rinmadi. Oldinlari uni ko'rsam

orqasidan tosh otib, turli gaplar bilan haqorat qilar edim. Shu voqeadan keyin boshqa bunday qilganim yo'q. Endi esa men u bilan do'st bo'lishim kerak. Otamga aytay desam ayb mendan o'tgan. Bir-biriga to'g'ri kelmaydigan o'ylar bilan chalkashib yotar ekanman, xayollarimdan dadamning gapi chalg'itdi.

— Armiyada xizmat qilgan paytimda bolalar bilan quchoqlashib, qiyomatli do'st bo'lishga bir-birimizga va'da berar edik. Qani, sen ikkoving ham shunday qilchi.

U kishi bizga qarab jiddiy gapirdi. «Men shu isqirt bilan quchoqlashib do'st bo'lamanmi?» Unga yaqinlashishni istamay, paysalga soldim.

— Ha, bo'linglar. Nimaga yuzalaringni tirishtirasanlar?

Xusrav biz bir-birimizni xushlamasligimizni bilar, lekin dadamning yuzidan o'tolmay, buni aytmadi.

Shunday qilib, bir-birini ko'rishga ko'zi yo'q dushmanlar quchoqlashib do'st bo'lishdi. Ikki kun ko'chaga chiqmadim. Birov bilishini istamadim. Ammo biz do'st bo'lganimizni hamma bilib bo'lgan ekan. Uyalib ketdim. Endi ular meni kalaka qilar, uzoqdan Bashirni ko'rib qolishsayam yonimga yugurib kelib do'sting kelyapti deya xabar berishardi. Biz majburan do'st bo'lganimizni esa hech kimga tushuntirolmadim. Boshida rosa urchigan bu gaplar biroz o'tib bosilib ketdi. Bashir bilan do'st bo'lganimni ham unutib yubordim.

O'sha yili qish qattiq keldi. Yo'llar sirpanchiq bo'lib ketganidan, ozgina ehtiyotsizlik bilan yurilsa yiqilib tushish hech gap emas edi. Otasi kasalmand bo'lgani uchun,

endi tilanchilik qilishga Bashirning bir o'zi chiqayotgandi. Ammo qizig'i u uylarga tilanchilikka emas, ish so'rab bosh suqardi. Odamlarning o'tinini yorib berar, molxonasini tozalar va qanday yumush bo'lsa hammasini bajarardi. Aslida u bolaligidan tilanchilikka o'rganmaganini men bilardim. Xusrav ha deb odamlarni aldayotganida, Bashir bir chekkada yerga kirib ketguday bo'lib turardi. Uning bu qiliqlari joniga tekanini aytib otasi ko'chada uni rosa urganini o'zim ko'rganman. Hozir qish chillasida uning ishlari ko'paygan, shuning uchun Bashirni ko'chamizdagi uylarning birida, biror yumush bilan har kuni uchratardim. Va kimdir do'stligimizni eslatib qo'ymasidan avval qochib qolardim.

Qosh qoraygan. Hozir qaytaman deb ko'chaga chiqib ketgan dadamdan haligacha darak yo'q. Ayoq qisib, er zo'r muzlagan. Onam xavotirlana boshladi. Shu payt darvozamiz qattiq taqilladi. Shundog'am xavotirdan yuragi o'ynab turgan onam eshikka yugurdi. Qo'shni bola ekan.

— Kelinoyi, amakim anhorda oqib ketyaptilar. Oyog'i sirpanib, yiqilib ketibdi.

Uning gapini oxirigacha eshitmay, anhor tomonga yugurdik. Anhor shundoq ko'chaning boshidan oqib o'tadi. Qarasak, dadam chindan oqib ketyapti. Pishqirayotgan muzday suvda u o'zini boshqara olmasdi. Suvning shovullagan vahimasidan, buning ustiga jonni chaqib oladigan muzdayligidan hech kimning unga tushishga yuragi betlamasdi. Onam chirqirab u yoqdan, bu yoqqa yugurar, atrofdagilardan yordam so'rar edi. Shu payt

kimdir o‘zini ko‘prikdan shaloplatib suvga otdi. Dadamning yonigacha suv tagida suzib kelgani uchun, kimligini ilg‘amay qoldik. Sovuqdan lablari ko‘karib tirishib qolgan dadam, haligi odamning yelkalariga mahkam tirmashib oldi. Endi tanidim. Bu Bashir edi. O‘n to‘rtga kirgan bola dadamni ko‘tarishga kuchi etmas, qirg‘oqqa chiqqunlaricha necha martalab suv ostiga kirib ketib, suv yutib yo‘taldi. Hamma yurak hovuchlab ularni kuzatdi. Nihoyat, Bashir va dadam qirg‘oqqa yetib keldi. Dadam muzlab qolganidan hech narsani sezmasdi. Bashirning bo‘lsa butun badani sovuqdan qaltirar, tishlarining bir-biriga tegayotgani eshilib turardi. Qo‘shnilar dadamni ko‘tarib uyga olib kirishdi. Men shoshib qolganimdan nima qilishni bilmasdim. Barcha dadam bilan andarmon bo‘lib Bashirni hech kim eslamadi. Uyga kirganimizdan keyin, onam eskirganidan tashlab yubor-moqchi bo‘lgan pal‘toni menga tutqazdi.

— Tez anavinga olib borib ber, tag‘in muzlab qolmasin. «Biz odamlar qanchalar razilmiz-a?» paltoni olarkanman, xayolimdan shu gap o‘tdi. Ko‘chaga chiqsam Bashir qaltiragancha uyiga ketib borardi. Uning elkasiga paltoni tashladim. U juda sovuqqotgan, bo‘lmasa paltoni indamay olmas edi.

— Yur, biznikiga. Isinib olib keyin ketasan.

— Yo‘q, kech bo‘ldi. Otam kutyapti.

U pal’toga o‘ranib yo‘lida davom etdi.

«Rahmat senga, dadamni qutqarib qolganing uchun». Men ahmoq bu gapni labim pichirlab aytdim. Uni o‘zimdandan boshqa hech kim eshitmadi.

Shamollab qolmasin deb dadam o‘ziga kelganidan keyin ham ancha vaqt kasalxonada yotdi. Hech qanday asorat qolmagach uyga qaytdi. Oradan yarim yilcha vaqt o‘tib, bu voqea unutildi. Bashir ham, Xusrav ham bizning ko‘chalarga kelmay qo‘ydi.

Bir kuni dadam ko‘chadan ko‘zlarida yosh bilan qaytdi. Peshvoz chiqqan onamga esa pichirladi:

— Bashir meni qutqarganida o‘pkasini qattiq shamolatgan ekan. Ertalab joni uzilibdi. Manovini otasi berib yubordi, — deya onamning oldiga Bashirga berib yuborgan pal’toni tashladi. — O‘limidan oldin otasiga uni egasiga berib qo‘ying degan ekan.

«Olmadi, baribir olmadi. O‘shanda ham omonatga olib turgan ekan. Bashir birovlariga tilanmaydigan, faqat o‘z kuchi bilan yashaydigan, gadoyvachcha!»

Pal’toni mahkam quchoqlab yig‘lar ekanman, men bir vaqtlar jirkangan do‘stimning hidini tuyib turardim.



KO'KYOL

Oppoq qor qoplagan zamin go'yo oq alanga qurshovida qolgandek. Sarbaland tog'lar bulutlar poyida egilgan. Ular ko'hna zaminning sukunat qo'shig'ini jim turib eshitishadi. Cheksiz oq sarhadlarga tikilgan odamning ko'zi poklik va musaffolikdan qamashadi. Qilt etgan jon yo'q. Onda-sonda qayerlardandir qora qarg'a-ning xunuk qag'illagani eshitiladi. Shu paytda archalar erinib qorli ko'ylagini silkib qo'yadi. Tiriklikning shugina alomatini hisobga olmasa, qorli saltanatni jimlik lashkari zabt etgani ayni haqiqat.

Ko'z ilg'amaydigan toshlar kovagidagi kichik uyada Ko'kyol bolalari bilan yolg'iz. Ona bo'ri holdan toygan, uch kunlik ochlik va qo'rquvdan hali o'ziga kelmagan. Bolalarini dunyoga keltirgan paytidagi sut to'la ko'kraklari shalvirab qolgan. Bo'rivachchalar ochlikka bardosh berolmay, g'ingshiydi. Ko'kyolning qurib qolgan elinini tamshanib so'radi. Bu esa bechora onani battar holdan toydiradi. U mallarang, o'qdek tik qadaluvchi ko'zlarini uyaning kichik og'zidan ko'rinib turgan borliqqa qadagan. Ammo tabiat ham uning ustidan kulganday goh-gohida uyaga bostirib kirgan izg'irin shamolga qo'shib, qor uchqunlarini ichkariga uradi.

Uch kunki ahvol shu. Ko'kyolning erkagi uch kun ilgari ovga chiqib ketgancha qaytmadi. O'sha kuni shomga yaqin bolalarini xatarda qoldirib bo'lsa-da, ona Ko'kyol erkagini qidirib daraga tushdi. Hali qiyalmasidan xushbichim tumshug'ini osmonga ko'tarib ulidi. Lekin erkagidan darak yo'q. Faqat osmonga tutashib ketgan cho'qqilardan o'z tovushi aks-sado beradi, xolos. U yana qiyaladi. Xatarsiz deb bilgan joylardan mo'ralab tog' etagidagi, tepadan bir hovuch bo'lib ko'rinib turgan qishloqqa mo'raladi. Cho'zib-cho'zib ulidi. Bu safar uning ovozigga javob qaytdi. Faqat erkagidan emas, qishloqning cho'pon itlaridan. Ular gala-gala bo'lib hurishdi. De mak, sezishibdi. Ortga qaytish kerak. Ko'kyol hali to'la kuchga kirmagan, yugurganda shamolni ortda qoldiradigan oyoqlarida majol etarli emas. U boshini quyi solgancha, sekin ortga tisarildi. Oppoq qor bag'rida kichik yaralarday qoldirgan izlaridan uyi tomonga yurdi. U nimadandir umidini uzgan, har zamonda yuragi qandaydir noxushlikni sezganday yurayotgan yo'lida to'xtab, quloqlarini dikkaytirgancha atrofga razm soladi. Hura boshlagan cho'pon itlarining, haliyam tinmagan ovozlari uni xavotirga solardi. Ular tobora yaqinlashib kelayotganga o'xshardi. Ko'kyol to'satdan qarshisidagi qoya tomon yugurdi. Tik qoyaga ko'tarilgunicha necha martalab dumalab ketdi, ammo bo'ri chekinmadi. U qoyaning ustida turib, tog'ning qishloqqa qarab qiyalagan yonbag'riga ko'zlarini qadadi. Bo'ringa ortidan esayotgan izg'irin ko'kish yunglarini har tomonga to'zg'itar, o'zi esa qoyaga o'rnatilgan haykalday qotib turardi.

Xavotiri bajiz emas ekan. Besh-oltita cho‘pon iti, tog‘ tomon yugurib kelardi. Ular yaqinlashib qolganidan Ko‘kyol itlarni aniq ko‘rdi. Shu payt quloqlarining tagidan nimadir vizillab uchib o‘tdi va uzoq-uzoqlarda qarsilagan tanish tovush eshitildi. Bu ovozni u bolaligida, onasidan ajralgan kuni eshitgandi. Ovchilar! Lekin ular qaerda? Ona bo‘ri vaziyatni anglab ulgirmay, o‘sha tovush yana ikki-uch bor qarsilladi. Ko‘kyol endi ortiga qaramay yugurdi. Uzun, paydor oyoqlari toshdan toshga sakrab tushayotganda, qor uchqunlari to‘rt tomonga sochilib ketardi. Mallarang qorachiq-lari olis cho‘qqilardan boshqa narsani ko‘rmas, Ko‘kyolning ko‘zidagi jur‘at yo‘qolmagandi.

Nihoyat, tog‘ etagidagi tekislikdan chiqib olgach xarsanglar bilan qoplangan daraga bekinib, jon saqlashni mo‘ljallardi. Daraning ovloq joyiga chekinmoqchi bo‘lib, jon-jahdi bilan tepaga sakradi. U o‘zining katta kuch bilan yuqoriga intilayotganini tanasini seskantirgan sovuq shamoldan sezdi. Izg‘irin uning suyagigacha titratib yubordi. Endi toshdan oshib o‘tdim deganda, orqa oyog‘i jazillab ketdi, o‘zini o‘nglayolmay boshi bilan quladi. Qor qalin bo‘lganidan lat emadi. Ona bo‘riga o‘q tek-kandi. Panjalarining orasidan sizib chiqayotgan qon oppoq qor yuziga tom-di. Ammo bo‘ri jarohatiga e’tibor bermay, oqsoqlanib yugurdi. Jarohat uning ingichka, biroq qoruvli bellarini bukib qo‘yardi. Biroq Ko‘kyolning to‘xtashga haqqi yo‘q, to‘xtash, o‘lim degani. Bo‘ri buni bilar, lekin ona uyasi, bolalari tomonga emas, boshi oqqan yoqqa qarab yugurardi.

Qorli yo'llardan qancha yugurdi, qayoqqa boradi, qayerga bekinadi, buni o'zi ham bilmaydi. Oxiri, sovuqdan qizarib ketgan tilini osiltirib, qalin qor ustiga cho'zildi. Itlardan qochib qutilgani uchun emas, boshqa chopishga majoli etmaganidan yiqildi. Panjalari orasidan oqqan qon sovuqdan laxta-laxta bo'lib muzladi. Ona bo'ri o'jizgina ingragancha tinchib uxlab qoldi. U yaqin orada bunday qattiq uxlamagandi. Ko'kyol hozir dunyoni, bolalarini, tirikligini unitib uxlardi.

Uyg'onganida atrofga tun cho'kkan, osmonning par yostig'i so'kilganday maydalab qor yog'ardi. Ko'kyol oqsoqlangancha iniga yo'l oldi. Yolg'iz qolgan bo'ri-vachchalar tashqarida tentirar, onasini ko'rishi bilan uning oyoqlariga suykalib g'ingshiy boshlashdi. Ona bo'ri bolalariga e'tibor ham bermay, iniga kirib cho'zildi. Old oyoqlarini chalishtirib, boshini tik ko'targancha ko'zlarini yumdi.

Shu alpozda o'tgan kunlarning bugun uchinchisi. Bo'richalar endi ovqat so'rab g'ingshimas, ochlikdan ovoz chiqarishga ham sillalari yetmay, Ko'kyolning pinjiga tiqilib mudrashadi.

Ona bo'ri quloqlarini dikkaytirib, bir muddat atrofga razm soldi, nimadandir seskanganidan junlari hurpayib ketdi. Sekin o'rnidan turib, tashqariga chiqdi. O'zi in qurgan do'nglikning chetiga borib pastga qaradi. Yonbag'irda sanoqsiz qo'ylar suruvi yoyilib yurar, qor ostidan endi quloq chiqara boshlagan o't-o'lanlarni chimdishardi. Qo'ylarga termularkan, bo'rining hovur ko'tarilib turgan so'lagi qor ustiga tom-di. Qorni shu qadar ochiqqanki, shu topda bir o'zi ikkita qo'yni g'ajib tashlashga tayyor.

Ammo ehtiyot bo'lishi kerak, chunki qo'ylarni qo'riqlayotgan cho'pon va itlar bor. Qolaversa, Ko'kyol bu ahvolidagi hujum ham qilolmaydi. Bo'ri boshini egib, ortiga qaytdi. U tabiatan sezgir va ehtiyotkor edi.

Onasining ortidan ergashgan bo'richalar g'or og'zida unga mo'ltirab turishardi. Ko'kyol ularning jovdiragan ko'zlariga bardosh berolmay ortga tisarildi. Endi tanlash imkoni yo'q; yo ohlikdan o'lishadi, yoki u tavakkal suruvga hujum qiladi.

Ko'kyol pusib qo'ylar tomonga yo'naldi. U payt poylab, fursat kutardi. Masofani, tezlikni, hatto, tashlanadigan qo'yni ham mo'ljalga oldi-yu, ammo ortidan yonbag'irlikka pastlab kelgan bitta bolasini sezmay qoldi. Nihoyat u kutgan fursat yetdi, bir nechta qo'y suruvdan ajrab, Ko'kyol bekinib turgan xarsanglar tomon yurdi. Aynan shuni istagan bo'ri o'qdek toshlar ortidan otilib chiqdi. Hurkib ketgan qo'ylar ma'ragancha har tomonga qochdi. Oqsoq bo'ri tig'dek o'tkir tishlarini o'zi quvib yetgan qo'yning bo'g'ziga soldi. Jonivor ojizgina xirillar, jonholatda tipirchilardi. Lekin shu kuchsiz qarshilik ham bo'rini holdan toydirdi. Nihoyat, o'lja tinchib qoldi. Bu orada cho'pon itlar uni payqab ulgirishgandi. Shoshilish kerak. Issiq qon ta'mi go'sht g'ajiyotgan bo'ri tanasiga kuch ato etardi. Yorib tashlangan o'ljaning katta bo'lagini tishlab olgach, Ko'kyol yana tepaga o'rladi. Sirpanchiq qorda amallab do'nglikka yetdi. Endi bu yog'iga qochib qutulish mumkin. Shamolday g'izillab ketayotgan bo'ri birdan to'xtadi. Tishlab olgan go'sht bo'lagini yerga tashlab ortiga biroz yurdi. Sababi, pastlikda bo'rivachchasi

chiyillardi. U bir yonbag'irga, bir qip-qizil qon tomib turgan go'shtga qaradi. U yoqda ovqatga ilhaq bolalari, pastlikda esa qutqarishini iltijo qilayotgan farzandi kutardi. Ko'kyol ikki o't orasida qoldi. Bolasini qutqarishga kechikkan, agar yana ikkilansa o'zi ham uning ko'yiga tushadi. Bo'ri yerdagi go'shtni tishlab, xarsanglar tomonga, ko'z ilg'amas osmonga tutashib ketgan tizmalarga qarab yugurgancha g'oyib bo'ldi.

* * *

Qop og'zi tang'ib bog'langan ekan, Sayid cho'pon ochishga ko'p urindi. Yuzlari qizarib, qo'llari sovuqdan tarashaday qotib qoldi. Qop ichida g'ingshib, chiyilayotgan bo'rivachcha uni battar tutoqtirdi. U qopni dast ko'tardi-da, yerga zarb bilan urdi. Qattiq tushgan bo'ri bolasi chiyillar, boyagidan ham battarroq pitirlardi.

— Enag'ar bo'rivachcha, — Sayid cho'pon qop yoniga kelib, ichidagi bo'richani mo'ljallab tepdi. Qop ikki-uch odim nariga uchib ketdi. — Qo'ylarimning xunini yuz baravar qilib chiqarib olaman. Yomon quturdilaring o'zi, tap tortmay kunduzi hujum qilganini-chi bularni. Hammangni bitta qo'ymay qoningni ichaman.

Sayid cho'pon qop og'ziga bog'langan i'pni yecholmay, yonidan pichog'ini chiqarib, qopni yordi. Haliyam tepki zo'ridan o'ziga kelolmayotgan bo'rivachcha hamon ingrardi.

— O'chir ovozingni, padarla'nat, — deya baqirgancha cho'pon bo'richaning bo'ynidan bo'g'ib, uni qopdan chiqarib oldi. Mushukday keladigan bo'rivachcha cho'ponning baquvvat kaftlari orasida oyoqlarini ko'mak istab

tinmay qimirlatar, lekin unga yordam beradigan hech kim yo'q edi. Bechoraning nafasi tiqilganidan, g'ing-shishga ham kuchi yetmay, og'zidan oq ko'pik chiqarardi.

To'satdan cho'pon bo'rivachchani osmonga ko'tardi. U qalin yoqqan qorni g'arch-g'urch bosgancha, go'yo bo'richaga butun borliqni tomosha qildirayotganday, u yoqdan bu yoqqa borib kelardi. Uning nima qilayotganini na jiyani, na o'g'li Sherzod va na ikki cho'pon tushunardi.

— Ko'kyol, Ko'kyol, qayerdasan, qanjig? — to'satdan Sayid cho'pon baqira boshladi. — Bilaman, sen yaqin oradasan, bolangni qanday azoblab rohatlanayotganimni ko'rib turibsan. Faqat ovoz bermayapsan. Hozir bo'rivachchangning qonini to'kaman. O'shanda ko'raman tipirchilab qolishingni. Men omon ekanman chorvamga yaqin kelolmaysan. Tishlaringni bittalab to'kaman. Teringni shilaman. Qolgan bolalaring ham manavi haromingni ko'yiga tushadi.

U yanada baland bo'lishi uchun, bo'richani bir qo'liga oldi;

— Ko'rib qo'y bolangni. U hozir mening qo'limda. Shunday qichqirtiramanki, qaysi kovakda bo'lsang ham nolasidan qulog'ing qomatga keladi. Ochko'zligingni deb uning shu holga tushgani umrbod yodingdan chiqma...

Cho'pon nimadandir seskanib, gapini oxirigacha aytolmadi. Boshini engashtirib barmog'ini g'ajiy boshlagan bo'rivachchaga qaradi va uni bor kuchi bilan uloqtirib yubordi.

— Yaramas,— xezlanib rezin etiklarida katta-katta qadam tashlagancha, qor uyimining ustiga tushgan bo'-

rivachchaning yoniga bordi. Uning qorga belangan ko'kish yunglaridan changallab, oyoqlari tomon tortdi. Shu payt uning ikkinchi qo'lida nimadir yaltirab ko'rindi. Pichoq! U bo'rivachchaning qo'lga zo'rg'a ilinar-ilinmas, quloqchalaridan tortib, boshchasini ko'tardi va bo'yniga tig' tortib yubordi. Bo'ri bolasining hali qotmagan nozik terisi shirillab yirtildi. Tiriklikni anglab ulgurmagan bo'richa o'limni ham sezmedi. Piyoladek keladigan boshchasi shilq yetib qorga tushdi. Jarohatdan oqqan qon qorni kuydirib yerga singib ketdi. O'rnida esa havoga ko'tarilayotgan issiq hovur qoldi.

— Bo'ldi, suruvni haydanglar, uyga qaytamiz. Kech tushmasidan qishloqda bo'lishimiz kerak, — dedi yonidagilarga Sayid cho'pon. Ergashning yoshlari ko'ziga qalqmadi, bo'g'zidayoq muz qotdi. Endi soviy boshlagan bo'rivachchaning murdasiga bir qarab qo'yib, boshqalarga ergashdi.

— Bekor qilibsan, — dedi uyga qaytgach bo'lgan voqeadan xabar topgan Hikmat ota o'g'li Sayid cho'ponga. — Endi Ko'kyol seni tinchitmaydi. Qanday qilib bo'lmasin xun oladi.

— Uning erkagi qopqonga tushgan, bir o'zi hech narsa qilolmaydi.

Sayid cho'pon otasining gaplariga e'tiborsiz qo'l siltadi.

— Sen bo'rining urg'ochisi bilan o'ynashyapsan. Ular qasoskor bo'ladi. Billsang, erkaklarini ham qanjiqlari izmiga solib boshqaradi. Sen cho'g'ni kovlab qo'yding, bolam. Endi bu yog'iga ehtiyot bo'l.

* * *

«Qo‘raga bo‘ri oralabdi».

Tong qorong‘isida qo‘ra tomondan cho‘ponning baqirgani eshitildi. Ergash cho‘chib uyg‘onganida hali tong yorishmagan, momosi tahoratga turmagandi. Sayid cho‘pon qo‘radan qaytar ekan, buralab so‘kinar, yo‘lida uchragan narsani tepib, uloqtirardi. Bola boshini ko‘rpaqa burkab oldi. Go‘yo meni sezib qolishmasin deganday, nafasini yutib yotadi. Cho‘pon to‘satdan o‘g‘li uxlayotgan xona eshigini qarsillatib tepdi.

— Sherzod, hoy Sherzod! Haliyam uxlayapsanmi, yaramas?

Cho‘ponning hovlini boshiga ko‘targan shovqinidan momo uyg‘onib ketdi. U o‘g‘lining janajal ko‘tarayotganidan xavotirlanib, Hikmat otani turti.

— Chol, hoy chol. Uyg‘oning.

— Nima deysan?

— Chiqib o‘g‘lingizdan xabar oling, hozir bolasini urib o‘ldirib qo‘yadi.

— Bu itfelga yana nima bo‘ldi?

— Bilamadim, o‘zingiz chiqib qarang. Men pechka yoqaman.

Chol erinibgina kiyingach, tashqariga chiqdi. Izidan Xosiyat xola ham mo‘nkillab, bir qo‘lida hassasi, birida choygum bilan ergashdi. Ular ketgach, bola derazadan tashqariga mo‘raladi. Chunki bu janjalning qanday tugashi unga qiziq edi-da.

— Nima bo‘ldi, o‘g‘lim? — dedi bobo Sayid cho‘ponga yaqinlashib: — Azondan bolalarigni qaqshatasan?

Qoʻrqqanidan yupun kiyinib, yugurib chiqqan Sherzodni buralab soʻkayotgan choʻpon ovozi biroz pastlatdi:

— Ota, siz aralashmang. Bu beparvolarni deb, boʻrilar qoʻyxonamda rosa yayrabdi. Ettita qoʻyni boʻgʻizlab ketibdi.

— Shunga oʻgʻling aybdormi?

Otasining be malol gapirganidan Sayidning jahli chiqdi.

— Agar bular nas bosib uxlamaganida, hushyor yotganida bilardi-da. Bor ustingga biror narsa ilib chiq. Serrayib turma oldimda.

Keyin u cholga yaqinlashib, past ovozda nimadir dedi. Bola amakisining gapini eshitolmadi, ammo bobosi asabiylashib hassasini yerga qattiq urganini koʻrdi.

— Ha deb bolani turtkilayverma, — choygumga qor toʻldirayotgan Xosyat xola gapga aralashdi. — Men yarim oqshom tashqariga chiqqanimdayam Sherzod qoʻyxonadan xabar olib qaytayotgandi. Yarim soatga koʻzi ilingan-da. Bu qirilgur boʻrilar ham shu paytni poylagan.

— Togʻdagi hamma boʻrini qirish kerak. Bularning dastidan chorvaga omonlik yoʻq.

Choygumni qorga toʻldirgan momo uyga qaytarkan, serrayib qolgan choliga soʻz qotdi.

— Turaverasizmi silayib, ular oʻzi qoʻrani tozalashadi. Sovuqda qolmay, ichkariga kiring.

Ular kelayotganini koʻrib, Ergash koʻrpaning ichiga kirdi. Shunda qoʻli yonida yotgan singlisining muzday bilagiga tegib ketdi. Uning usti ochilib, sovuq qolganini bola endi sezdi. Singlisini koʻrpaga yaxshilab oʻrab, ozgʻin barmoqlarini kuh-kuhlab isita boshladi. Qizcha bir tamshandi-da, yana tinchib qoldi.

Bu orada nam tortib shishib qolgan eshik g'iyqillab ochilib, Xosiyat xola, izidan choli kirib keldi.

— Uy juda sovib ketibdi, tezroq pechkani yoq.

Hikmat ota og'ir xo'rsinib joyiga cho'zildi.

— Ko'klam kelsayam, kun isiy de maydi. Na kun chiqadi, na qor eriydi, — ho'l o'tinni tutashtirmayotgan kampir ming'irladi. — Bu ketishda hayvon-ku hayvon, odam ham qirilib ketadi.

Uyni qoplagan achimsiq tutundan bolaning ko'zlari achishdi. Loysuvoq, mung'aygan derazaning singan ko'zlariga latta-puttalarlar tiqilgan, pastqamgina uy tutunga tez to'lardi.

— Nimaga indamaysiz, chol? — dedi nihoyat, tappisi tutashgan xola.

— O'ylayapman.

— Nimani?

— Hammadan ham shu ikki go'dakka qiyin bo'ldi. Bechoralarning peshonasi qattiq ekan.

— Nimaga unday deysiz? Ota-onasi tashlab ketgan bo'lsa biz bormiz-ku.

— Bizniyam xudo bog'lab bermagan. Bir kuni ketsak bular nima qiladi?

— Ha, etimning rahmini xudo esin, — cholineg nima uchun bunday deytganiga tushunmagan Xosiyat xola birdan sergaklandi. — Nimaga birdan bu haqida o'ylab qoldingiz, chol?

— Bo'ri g'ajigan qo'ylarning beshtasi Ergashniki ekan.

Bobosining bu gapini eshitib, bolaning badani muzlab ketdi. Uning atigi oltita qo'yi bor edi. Hali maktabga chiqmagani uchun sanashni yaxshi bilmasdi. Ammo

buni juda tez hisobladi. Demak, bitta qo‘yi qolgan. Bultur qo‘ylarini boqqani uchun amakisi uchta qo‘zicha bergandi. Endi ko‘paya boshlaganida bo‘ri eb ketsa-ya! Bola ularni ko‘paytirib bir, yo‘q, ikki suruv qilmoqchi edi. Keyin sotib, puliga singlisi Ruxsorni davolatmoqchi edi. Bu niyatini bobosi ham bilar, shuning uchun ham kuyunyapti. O‘zi istamasa-da, bolaning ko‘zlariga yosh qalqdi. Yo‘q, u yig‘lamadi, ko‘zlari yoshlandi, xolos. Lekin buni hech kim ko‘rgani yo‘q.

— Xudo jazosini bersin o‘sha ochko‘zlarning, yorilib o‘lgur tekinxo‘rlar. Shuncha qo‘yni ichidan bir etimchanning nasibasini yeysanlarmi? Juvormak bo‘lgurlar.

Momo diydiyosini boshlab bo‘rilarni qarg‘ay ketdi.

— Jim bo‘l. Avvalroq erkagini qopqonga tushirishib ketishgan ekan. Ona bo‘rining suruvga hujum qilishdan boshqa iloji qolmagan. Jonivorni qarg‘ama. Uyam ona-da, bolalarining ko‘z oldida ochdan o‘lishiga chidolmagan.

— Bolalariyam, o‘ziyam qirilib bitsin.

— Bo‘ldi qil. Pechkang yongan bo‘lsa, kelib damingni ol.

Hikmat ota gapni cho‘rt kesganidan so‘ng, xola nimalardir deb g‘o‘dranib o‘rniga kelib yotdi va birozdan keyin xurrak otib uxlab qoldi.

Bolaning ko‘ziga uyqu ilinmadi. U bobosining ham uxlay olmayotganini sezib yotardi. Ozg‘in barmoqlarini kaftlari orasiga olib isitib yotarkan, singlisiga juda rahmi keldi. U tug‘ilganidan buyon yurolmaydi. Birov tash-

qariga ko'tarib olib chiqadi, ko'tarib olib kiradi. Ham-madan ham unga jabr. Ruxsor uchun boqayotgan qo'y-larini ham bo'ri edi. «Bobom ikkimiz uni shaharga olib borib davolatmoqchi edik». Bola go'yo bor-budidan ayrilgan odamday tushkunlikka tushib qoldi.

Ertalab ularni Xosiyat xola choy damlab, dasturxon yozgach uyg'otdi. Oila dasturxon boshida jam bo'ldi, lekin hech kimning kayfiyati yo'q.

— Ota, Davron temirchi katta qafas yasab beraman deyapti. Qo'raning ichida bo'riga qopqon qo'ymoq-chiman. Ular bir mazasini olishdi, endi doim keladi. Havoyam isish o'rniga, kundan-kun sovib ketyapti. Bunday havoda tog'da yemish topolmay, yana qishloqqa tushadi.

Hikmat ota choy ho'plab turgan piyolasidan ko'zini uzmay;

— Sen boshidan xato qilding, bo'rivachchani o'ldir-masliging kerak edi. Ona bo'rining ko'zi qonga to'lgan. Qo'lga tushirishing amri mahol, — dedi.

— Bo'lmasa, hammasini g'ajib ketaversinmi? — Bilmadim, o'zing to'g'ri deb o'ylaganingni qil. Faqat ehtiyot bo'l. Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarma.

Kun bo'yi qo'yxonada usta ishladi, temirdan katta qafas yasadi. Ustalar qo'yxona tevarvgini tikan sim va pichan bilan o'rab chiqishdi. Ozgina kirish joyi qoldirib, uning to'g'risiga qafasni o'rnatishdi. Ergash kattalarning nima qilayotganiga tushunmasdi. Lekin amakisining vajohatini ko'rib, ona Ko'kyolning yaqinda qo'lga tushishini bilardi. Qaniydi! Yaxshi bo'lardi. Axir yil

bo'yi boqqan qo'ylarini bir kunda bo'g'izlab ketdi. Bolaning hali nafrat nimaligini bilmaydigan jajji yuragida ona bo'riga nisbatan isyon paydo bo'lgandi.

Amakisi va Sherzod tuni bilan galma-galdan qo'yxonani poylashdi. Tiq etgan tovush eshitilsa, yugurib borishadi. Lekin o'sha tun ham, keyingi tunlarda ham ona bo'ridan darak bo'lmadi.

— U endi qaytmasa kerak, — dedi Sayid cho'pon sovuqdan tirishib, qo'ra eshigi yaqinida qorovullik qilayotgan o'g'liga yuzlanib. — Kirib uxla. Men o'zim biroz turib, keyin yotaman. Bu la'nati endi bo'sh kelmasligimizni biladi.

Sherzoddan keyin cho'pon ham yarim soatcha turib, ichkariga kirib ketdi. Biroz o'tib uylarning chirog'i o'chdi. Kaftdekkina qishloq, poyonsiz tizmalar bag'rida mudrardi. Ergashning esa ko'ngli g'ash, nimagaligini bilmaydi. Uni qandaydir tushuniksiz vahima bosardi. Qorong'i xonada, pastqam shiftga termilib yotibdi. Har zamonda deraza yoriqlaridan shamol vahimali vishillaydi. Borliqni tunning rutubatli sukunati qoplagan. Qorong'ilik bola tushunmaydigan tilda nimadir der, ammo uni anglolmayotgandek edi. Hali yonib bitmagan pechkadagi tashsha har zamonda charsillab, uchqun sachratadi. Uchqunlar bir muddat pechka tirqishidan atrofga yorug'lik taratib o'tadi. Bu paytda shiftning tutundan dog' bo'lib ketgan karnay atrofidagi qismi ko'rinadi. Shu choq tashqaridan nimaningdir ojiz ingrangan ovozi eshitildi. Tashqarida qamchilashayotgan bo'ron tovushidan bola uning nima ekanini aniq anglolmadi. Yuragini

qoplab kelayotgan vahima portlagandek bo'ldi. Tun uni ana shu narsaning sodir bo'lishidan ogohlantirgan ekan. Jim yotibdi. Ingrash yana eshitildi. Hamma qattiq uxlagan. Bola esa jim yotolmaydi. Sekin turib tashqariga chiqdi. Ovoz qo'yxona tomondan kelardi. Aslida uning bir o'zi yolg'iz tunda tashqariga chiqishga qo'rqardi, lekin hozir o'zi tushunmaydigan jasurlik paydo bo'ldi. Qo'yxonaga pichan g'aramlari bosilgani uchun, mashala olib kirib bo'lmaydi. Amakisining katta fonari uning o'zida. Ergash qo'ra eshigidan sekin ichkariga kirdi. Hurkib ketgan qo'ylar har tomonga tarqashdi. Bola qafas qo'yilgan tomonga yurdi. Qafasda nimadir tipirchilab, ingrar, o'zini tarsillatib qafas chetlariga urardi. Bola ko'zlariga ishonmadi. Ona Ko'kyol qafasda edi! Endi undan o'ch olish mumkin. Bu fikr bolakayning miyyasiga keyinroq keldi. Avvaliga u biroz karaxt bo'lib qoldi. Borib amakisiga xabar berish uchun ortga tisarildi. Lekin qo'radan chiqmay turib, ortiga qaytdi. Negaligni o'zi qam bilmaydi. Bo'ri cho'g'dek lovullab yonib turgan ko'zlarini Ergashga qadadi. Uning nigohi shu qadar o'tkir ediki, bola beixtiyor ko'zlarini olib qochdi. Bo'ri unga mo'ltiramadi, najot istab g'ingshimadi ham, faqat tikildi, har bir harakatini kuzatib tikildi. Ergash dovdirab qoldi. U birinchi marta tog'lar hukmdori ona Ko'kyol bilan ro'baru turibdi. Taqdirning o'yinini qarangki, bo'ring joni hozir odam bolasi qo'lida. Dunyoning dunligi ham shunda. U o'zi yozgan piesani o'zi ham hayron qolib tomosha qiladi bunday paytlarda. Bolakay endi nima qilsin? Qo'ylarining xunini olsinmi...

Ergashning yuragi aqli izmidan chiqib ketdi. Nima qilayotganini o'zi ham sezmasdi. U qafasning og'ir eshigini tepaga torta boshladi. Bo'ri sig'adigan qilib ochdi. Ko'kyol qafasdan otilib chiqdi. Ko'zlarini o'q-dek qadab bolaga yaqinlashdi. Shunchalar yaqin keldiki, bola bo'ringa nafasini his qildi. Boya higohlariga bardosh berolmagan ko'zlari bu safar tik boqdi. Ammo bo'ringa malla qorachiqdarida g'azab yoki nafratni ko'rmadi, ularda odam tushunolmaydigan mehr bor edi. Ularning to'qnashuvi sanoqli lahzada tugadi. Bo'ri qora ko'lankaga aylanib, bir sakrash bilan devordan oshib o'tdi. Xatar yo'q, lekin nimagadir bolani endi qo'rquv bosdi. U ancha vaqtgacha qotib turib qoldi.

* * *

Ko'kyol bir o'limdan qoldi. Ovdan qup-quruq, ammo tirik qaytdi. Holdan toygan ona tun bo'yi ikki bolasining ochlikdan g'ingshiganidan uxlolmadi. Yara ustiga chip-qonday bir necha kundan beri bo'ralab qor yog'adi. Bunday paytda ov qilib bo'lmaydi. Ko'kyol g'or og'zida turib, oxiri ko'rinmaydigan kenglikka qarab ulidi. Ammo sillasi quriganidan ovozi o'zi istaganidek chiqmadi. Yana ortiga qaytib, bolalarini pinjiga olib cho'zildi. Tun yarmidan oqqanda bo'ri cho'chib sergak tortdi. To'rt tomondan gumburlagan tovush kelardi. Go'yo cho'q-qilardan tosh ko'chayotgandek. U bolalarini turtib tashqariga olib chiqdi. Bir biriga ulanib ketgan baland tizmalardan oppoq qyun pastlikka bostirib kelardi. Ko'kyol bunday hodisani erkagi bilan juftlashgan paytda

ko'rgandi. O'shanda ikkisi ham kuchga to'lgan, g'ayrati tanasiga sig'masdi. Ular qor ko'chkisidan quvlashmachoq o'ynayotgandek yugurib qutilishgan. Hozir esa bir-biridan ojiz ikki bolasi bilan qoldi. Qor quyun kabi bostirib keladi. Yagona yo'l — qochish. Lekin u ikki bolasini bir yo'la olib qocholmaydi. Ona bo'ri vaqtni boy bermay, bolalarining birini tishladi-da, pastlikka qarab yugurdi. Ortida qolgan bo'rivachcha esa onasi ortidan ozgina chopib, ortda qolib ketdi.

Ko'kyol jonholatda yugurib, qor ko'chkisidan qutilgach, madori qurib qorga cho'zildi. Onasining tishlari botganidan, kuraklari yaralanib, qon sizib qolgan bo'rivachcha ham qilt etmasdi. Tongda yana uyg'onadimi, yo'qmi, balki, tiriklik sharbatidan yana totishar, balki yo'q, endi ona-bolaga baribir. Ular hozir o'zlarini unitib, uxlashadi.

Kun tushga yetganda, quyosh miltillab ufqqa ko'tarildi. Uning nimjon nurlarida qorga belangan tog'lar ajib jilvalanardi. Cho'zilib yotgan ona bo'ri erinibgina ko'zini ochdi. Uning dimog'iga shirin hid urildi. Bo'ri sekin hid taralayotgan tomonga qarab yurdi.

Ko'kyolning ortidan tirik qolgan bo'rivachcha ergashdi.

* * *

Sayid cho'pon bo'rini qafasdan Ergash qo'yib yuborganini bilmadi, uning te mir qafasdan ham qutilib chiqib ketganiga qoyil qoldi. Shundan keyin bolakay amakisi Ko'kyolni endi tinch qo'yadi deb o'ylagandi. Lekin u o'ylaganiday bo'lmadi. Amakisi hamon bo'rini qo'lga

tushirish ishqida yonardi. Bolaning esa amakisi qazib, ustiga shox-shabba tashlab qo'ygan chuqurga Ko'kyolning yaqinlashmasligini xudodan so'rashdan o'zga chorasi qolmadi.

Katta cho'qqi tomondagi yaylov qor ostida qolgani uchun, bugun chorvani boshqa yaylovga haydashdi. To'g'ri, yaylovlarda hali o't ko'klamagan. Ular chorvaning oyog'i yozilishi va namda yumshab turgan o'tgan yilgi o'tlarning xas-xashaklarini ermak qilishi uchun olib chiqishdi. Ertalabdan havo biroz iligan, kun endi ko'klamga o'xshay boshlagandi. Tushga yaqin cho'ponlar ovqatlangani o'tirishdi. Tushlikni boshlaganlarida, qishloq tomondan yaylovga qarab kelayotgan otliq ko'rindi.

—Rahim chavandoz-ku!—dedi Sayid cho'pon uni tanib.

Chavandoz otdan tushdi.

— Sayidboy, Sayidboy. Ey, suyunchi ber.

— Tinchlikmi?

— O'ra qazib zap ish qilgan ekansan. Chuqurni chetiga qo'ygan go'shtlaringga ahmoq Ko'kyol aldanib o'rada o'tiribdi.

— Rostdanmi? — xabardan ichiga sig'may ketgan cho'pon baqirib yubordi.

— Yur, odamlar seni kutishyapti.

Sayid cho'pon yugurib otiga mindi va ot ustida turib jiyanini chaqirdi.

— Ergash, sen ham mingash, qo'yaringni yeb ketgan bo'ring ahvolini ko'rasan.

Boray desa Ko'kyolning ahvolini ko'rishga yuragi

chidamaydi. Bormay desa, qiziqyapti. Biroz ikkilanib turgach, u amakisining otiga mingashdi.

Bola Ko'kyolning ehtiyotkorligini eshitgani uchun, uni hech qachon o'raga tushmaydi deb ishongandi. Yetib kelganlarida o'ra tevaragi odamga to'la edi. Ular uzun tayoqlar bilan o'radagi vahimadan o'zini har tomonga urib, g'irillayotgan bo'rini turtkilashardi. Qo'rqib ketgan ona bo'rining ko'zlaridan o't chaqnardi.

— Qaranglar, yonida bo'rivachchasi ham bor ekan.

Kimdir ona bo'rining panasida turgan bolasiga ishora qildi.

— Sayid aka, Ko'kyolni nima qilamiz?

Cho'pon o'ylanib turib, Rahim chavandozga javob qaytardi:

— Uni tiriklay qo'lga tushiramiz. Qiynab o'ldirmoqchiman. Hozir otib tashlasa o'ladi, qo'yadi. Bu yaramas oson qutiladi. Qo'yxonadagi qafasni olib kelib, unga bo'rini solamiz.

Odamlar Sayid cho'pon aytganday qilishdi. Ko'kyol esa taqdirga tan berganday jim. U ingranib bolasini yalardi. De mak, hammasi tamom. U ortiq kurashmaydi, uning kurashish uchun imkoni ham qolmagan. Bola bu holga ortiq qarab turolmadi. Ergash uning tirik qolishini juda juda istardi. «Uyga qaytaman, boshqa tomosha qilib turolmayman». U hech eshitmaydigan qilib pichirladi. Endi yo'lga tushganida, qopqon yonidagi odamlar baravariga qiy-chuv ko'tarishdi. Ular nimadandir qattiq cho'chib ketishgandi. Ergash ortga qaytdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, ona bo'ri o'z bolasini g'ajirdi. Himoyasiz bo'richa ingrar, pichoq-

dek o'tkir tishlardan qutulishga urinardi. Odamlar qutirgan bo'rini otmoqchi ham bo'lishdi. Ammo Sayid cho'pon bunga yo'l qo'ymadi. U dahshatli manzarani jimgina kuzatdi. Bo'richaning qarshiligi ko'pga cho'zilmadi, u tinchib qoldi.

— Bunchalar vahshiy-a, bo'ri! Hatto, o'z bolasini o'ldirishdan toymaydi bu qonxo'r — dedi kimdir.

Bo'rivachcha o'lgandan keyin, Ko'kyol tepaga qarab otildi. U payt poylab turgan ekan, hech kim qarshilik qilolmadi. Ko'kyol o'radan o'qday otilib chiqib, bir zumda ko'zdan yo'qoldi. Bo'riga qoyil qolgan Sayid cho'pon uni ta'qib qilmadi.

Odamlar bo'rining jasurligi haqida gapirar, ammo o'z bolasini g'ajiganini aytib uni qarg'ashardi. Lekin bola bunday o'ylamaydi, u bor dardini bobosi o'rik yog'ochidan yasab bergan cho'pontayog'iga aytadi.

«Ko'kyol dunyodagi eng yaxshi ona, hatto, odamzod onalari ham u kabi bo'lolmaydi. Chunki qochayotganida o'radan bolasini olib chiqolmas edi. U bolasining odamlar qo'liga tushishini istamadi. Chunki amakim uning bolasini qanday o'ldirayotganini Ko'kyol chorasiz kuzatganini men bilaman.

Onam tashlab ketayotganida, besh yosh edim. Ruxsor uch yoshda edi. Ammo mening ko'zyoshlarim, ketmang deb yalinganlarim ham mayliga, hatto, yurolmaydigan singlimning nolasiga ham parvo qilmadi. Ko'kyol bo'lsa bolalarini azbaroyi yaxshi ko'rganidan, o'ldirishgacha bordi». U aslida bunday aqlli gaplarni hali gapirolmas, lekin butun vujudi bilan aynan shunday demoqchi edi.

Shu voqeadan so'ng ko'kyol bu atrofda boshqa ko'rinnadi. Lekin Hikmat ota uning qasos olish uchun, albatta, qaytishini, undan ehtiyot bo'lishini o'g'liga bot-bot takrorlar edi. Sayid cho'pon ham oldingiday beparvo qo'l silkimas, o'zining ham xavotiri borligini yashirmasdi.

Yoz tuni. Atrof oydin. Bugun suruv boshida Ergash amakisi bilan qolgan. Lekin negadir ikkisining ham ko'ziga uyqu ilinmaydi.

— Ko'kyol nima qilyapti ekan?

To'satdan sukunatni amakisi buzdi.

— Bilmadim.

— Shu kunlarda tushimga ko'p kiryapti.

Bola indamadi, amakisi ham boshqa gapirmadi.

Tun yarמידan oqqach, qo'ylardan xabar olgani qo'radan tashqariga chiqishdi. To'satdan itlar baravariga hura boshladi. Sayid cho'pon itlar hurayotgan yoqqa qarab — jiyani bilan ergashdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, itlarni ortda qoldirib, ular tomon ona bo'ri yugurib kelardi. Ikkisi ham Ko'kyolni bir ko'rishdayoq tanidi.

Shuning uchun tushimga kirayotgan ekan-da, — dedi Sayid cho'pon qo'lidagi miltiqni bo'riga to'g'rilar ekan. Tog'larni larzaga keltirib, o'q tovushi qarsilladi. O'qqa uchgan bo'ri, uch-to'rt marta umbaloq oshdi. Uni o'ldi deb o'ylashdi. Cho'pon qo'rquv aralash, bo'ri yiqilgan tomonga sekin yurdi. Biroq o'ldi deb o'ylaganlari ona Ko'kyol o'rnidan turdi. Bu gal cho'pon miltiqni to'g'rilashga ulgurmadi. Ko'kyol uning bo'g'ziga og'iz solib bo'lgandi. Bola amakisining dahshatli ovozi eshitdi. Ko'kyol Ergashga yaqinlashgachgina, u o'ziga keldi. Bir

vaqtlar his qilgan bo'ri nafasini yana tuydi. «Tamom bo'ldim» deb o'yladi o'zicha. Qo'rquvdan tosh haykalga aylandi. Ko'zlari bir umr yodida qolgan bo'ri nigohlari bilan yana to'qnashdi. U bolaning yonginasida turib uzoq ulidi. Lekin bolaga tegmadi. Biroz tik turgach shundoq oyog'i ostiga gursillab quladi. Ko'kyol yotgan joyida tinchib qolgunicha ulidi. U qattiq yaralangandi.

Bo'ri bugun hamma narsa uchun motam tutdi. Erkagi, bolalari va o'zi uchun ham. Bola bir vaqtlar uning haqiqiy ona ekanini bilgandi, hozir esa u boshqalar aytganiday qonxo'r emasligini ham tushundi.



LAFZ

Mushtlashuvdan oldin Bunyod chayir gavdasini ko'zko'zlab kerishdi. Uning mushaklari turtib chiqqan, qo'llarini musht qilib yuqoriga ko'targanida, ozg'inligidan qovurg'alarini sanasa bo'lardi. U Lazizga qaraganda jussasi ham, yoshi ham ancha kichik. Ammo shunday bo'lsa-da, mushtlashuvning oxiri nima bilan tugashi hammaga ayon. Bolalar faqat kaltak yegan Lazizning ahvolini tomosha qilgani yig'ilishgan. Aslida-ku, Lazizning mushtlashishga yuragi dov bermas, bolalarning oldida kerilgani uchungina majbur edi. Shu sababli raqiblar jangovar kayfiyatda bo'lsa ham, u qattiqroq kaltak yemaslik uchun Bunyodning yonida girdikapalak bo'lardi. Mahalladagilar bunday mushtlashuvlarning ko'pini ko'raverib, e'tibor ham bermay qo'yishgan. To'g'ri-da, Bunyodday xudobezoriga bas kelaman deb, kimning ko'zi uchib turibdi? O'tgan yili Aktam aka qattiqroq tanbeh bergani uchun Bunyod o'sha kuniyoq ikki-uchta o'rtog'i bilan uyining deraza oynalarini bitta qoldirmay sindirib ketganini hamma biladi.

Laziz hadeb davraga tushishni paysalga solaverganidan Bunyodning jahli chiqdi:

— Bo‘lsang-chi, sendaqalarni kutib turgani vaqtim yo‘q. Qiz boladanam o‘tding-ku...

Bu gapdan keyin indamay turib bo‘lmasdi. Ertami-kechmi, baribir, kaltak yeydi. Shunday ekan, Laziz Bunyodning yoniga keldi. Mushtlashuv boshlandi. Birinchi bo‘lib Laziz tashlandi. Uning zarbasi qattiqroq tegdi, shekilli, Bunyod beixtiyor o‘kirib yubordi, ammo keyingi zarbalarga chap berib qoldi. U ozg‘in bo‘lganidan pildirab beso‘naqay raqibining goh o‘ng tomonida, goh chap tomonida paydo bo‘lardi. Uning qayerdaligini anglab ulgurguncha Lazizning yuziga bir nechta musht kelib tushdi. Bola biroz gandiraklab qoldi. Bunyod fursatni boy bermay, bor kuchi bilan Lazizning oyoqlariga tepdi. Bu zarbdan so‘ng Laziz yiqildi. U ancha to‘la bo‘lganidan yerga gursillab tushdi.

Bunyod uzala tushib yotgan Lazizning tepasiga keldi. U doimgiday xotirjam, mushtlashuvga shay turgan bilaklariga kuchi sig‘masdi.

— Davom etamizmi, baqaloq?

Laziz ovozi chiqarishga ham holi bo‘lmay, boshi bilan «yo‘q» ishorasini qildi.

Bunyod jahli chiqqanidan chekkaroqqa tupurib yubordi:

— Holing shunga yetarkan, yana kerilishingga balo bormi?

Atrofdagilarning ko‘zi Bunyodda. Hech kim uning oldidan o‘tib, yerda bir ahvolda yotgan Lazizga yordam beray de maydi.

— Uyiga olib borib tashlanglar...

U g'urur bilan gapirib, yechgan kiyimlarini kiymasdan yalang'och yelkalariga tashlab, davradan chiqib ketdi. Bunyod biroz uzoqlashgach, qolganlar Lazizga yordamga kelishdi. Hamma o'zi bilan o'zi ovora. Bunyod to ko'zdan g'oyib bo'lgunicha faqat Shodmon uni kuzatib turdi. U Bunyodning jasoratiga havas qilsa, shafqatsizligi uchun yomon ko'rib ketdi.

Qishloqda qanday janjal bo'lsa, uning boshida, albatta, Bunyod turadi. Ilgari bunday mushtlashuvlar deyarli har kuni bo'lardi, hozir esa onda-sonda. Chunki Bunyodga qarshi chiqadigan bolaning o'zi yo'q. Faqat ba'zida pana-panada Lazizga o'xshab maqtanib qo'yganlarni hisobga olmasa. Lekin Bunyod bulardan bexabar qolmaydi. Bolalar unga yaxshi ko'rinish uchun ham xushxabarni yetkazishga oshiqadi. Qarabsizki, yana tomosha.

Mushtlashuv bilan bo'lib, Shodmon ancha qolib ketibdi. U yoqda onasi kutib... Kitob to'la katta sumkasini yelkasiga osib, maktabga yugurdi. Borganida, Mehri opa maktabning uzun zalining anchasini yuvib ulgurgan ekan. Aslida, kechikishiga o'zi aybdor, lekin jahlini bosish uchun alamini onasidan oldi.

— Sizga aytgandim-ku, «Kelgunimcha boshlamang», deb... Ozgina kech bo'lsa ham, o'zim qilardim.

Mehri opa egilaverganidan qotib qolgan belini arang tik tutdi.

— Darslaring ko'payib ketgan bo'lsa kerak, deb o'ylovdim. Bugun kelmasang ham bo'lardi. O'zi ozgina qoluvdi-ya...

Qanchalik jahli chiqmasin, bola onasining xokisor so'zlaridan yumshadi. U hech narsa de may, onasining qo'ldan

pol artadigan lattani olib, chayib kelgani tashqariga chiqib ketdi. Mehri opa ertalabdan beri urinib, yarmini artgan zalning qolganini Shodmon hash-pash deguncha tozalab qo'ydi.

— Hali yoshsan-da, beling kuchga to'la, — o'g'lining xomushligini payqagan Mehri opa uni chalg'itishga urindi.

— Menam sendayligimda charchash nimaligini bilmasdim. Shodmon indamadi.

— O'zi o'qishlaring yaxshimi, bolam? Har kuni darsdan keyin menga yordam berasan. Shunga qiynalib qolmadingmi... deyman.

— Eplayapman, ona, — Shodmon ishni tugatib, narsalarini yig'ishtira boshladi. — Bundan keyin kech qolib ketsam ham, ishni boshlamang. Uyga boravering, o'zim tozalab ketaman.

Ular ishni tugatib, uyga yo'l olishganida qosh qoraygandi.

— Ona, ishingizdan bo'shang. Shundog'am mazangiz yo'q. O'zingizni battar oldirib qo'yasiz, — dedi yo'l-yo'lakay ketayotib Shodmon.

— Ozgina daromadimiz ham shundan, uyam uzilib qolsa, qiynalamiz.

— Tomorqada ishlayotganimiz ham yomon bo'lmaypti-ku.

Kun bo'yi og'ir ish qilmasayam tezda charchab, ranglari sarg'ayib qoladigan Mehri opaning, ayniqsa, bugun mazasi qochgandi. U holsizlanib, sekin-sekin qadam tashlar, lekin buni o'g'liga sezdirmaslikka harakat qilardi.

— Biror joyingiz og'riyaptimi? — so'radi o'g'li rangi tobora siniqib borayotgan onasidan.

Mehri opa yosh bo'lishiga qaramay, o'g'lining ko'p narsaga aqli yetishini biladi. Yonida shunday suyanchig'i borligidan ba'zan xursand bo'lsa, ba'zida Shodmonning savollariga javob berolmay qiynaladi. Agar hozir «Yo'q, yaxshiman», desa, aldayotganini o'g'li, baribir, biladi. Shuning uchun to'g'risini aytishga majbur:

— Ha, biroz sanchib turibdi. Hozir o'tib ketadi.

— Keling, menga suyanib oling.

Shodmon Mehri opaning qo'ltig'idan kirib suyab oldi. Uyga borganlaridan so'ng kechki ovqatni amallab bolaning o'zi tayyorladi. Ichiga issiq korgach Mehri opaning yuziga biroz qon yugurdi. Onasidan xavotirlangan Shodmon anchagacha uning yonidan jilmadi.

— Kecha ustozingni ko'rgandim, seni rosa maqtadi. Oltinchini tugatganingdan keyin shahardagi gimnaziya ga yo'llanma berisharkan.

Garchi bu xushxabar bo'lsa ham, Shodmon unchalik e'tibor bermadi:

— Mengayam aytishgandi. Lekin shaharga bormayman. O'zimizning maktab ham yomonmas.

— Nega unday deysan? O'zing Toshkentda o'qib, katta odam bo'lishni istarding-ku.

— Men o'qimayman, deyayotganim yo'q. Faqat hozir bir o'zingizni tashlab ketolmayman...

Shodmonning bu gapidan keyin Mehri opa o'zini yanayam tetik ko'rsatishga urindi:

— Men o'zimni o'zim eplay olaman. Birovning ko'magiga muhtoj emasman. Qo'lidan hech ish kelmaydigan nogironmidim...

Aslida, chindan ham ayolning qo‘lidan hech ish kelmaydi. Maktabda nomiga farrosh, hamma ishni Shodmon qiladi. Mehri opaning o‘zi buni ichi-ichidan bilib tursa-da, bolalarcha o‘jarlik qilgani-qilgan.

— Maktabni shu yerda tugataman. O‘qishga kirish qochmaydi.

U yoshiga xos bo‘lmagan jiddiylik bilan suhbatga nuqta qo‘yib, uxlash uchun o‘rin sola boshladi.

Shu kecha onaning ham, bolaning ham ko‘ziga uyqu kelmas, bir-birining uyg‘oqliklarini bilishsa-da, buni oshkor qilishmadi. Mehri opa o‘g‘li uni deb shaharga o‘qishga bora olmasligidan, Shodmon esa bunga onasi o‘zini aybdor hisoblab qiynalayotganidan siqilardi.

Esini tanigandan buyon Shodmon onasi bilan yolg‘iz yashaydi. Otasini, yaqinlarini eslolmaydi ham. Ro‘zg‘or qiyinchiliklari erta boshiga tushgani uchunmi, bolakay juda tez ulg‘aydi. Uning oldiga qo‘ygan maqsadlari ko‘p, ammo eng katta burchi onasi oldida edi.

Ertasiga Shodmon darsga borganida o‘rtoqlarining qizg‘in gurungi ustidan chiqdi.

— Bugun darsdan keyin zo‘r jang bo‘ladi, — deya birinchi bo‘lib Hikmat suyunchi oldi Shodmondan. — Bunyod bilan Lazizning amakivachchasi mushtlasharkan.

— Tolibmi?

— Yo‘q, biz tanimaydigan amakisi ham bor ekan. Shaharlik bo‘lsa kerak. Alamiga chidolmay, o‘shani chaqiribdi. Lekin uniyam kuchli bola deyishyapti.

Shodmon javobini qisqa qildi:

— Mayli, borib ko‘ramiz.

Darsdan keyin mashg'uloti bo'lsa ham, u bolalarga qo'shib, mushtlashuvni tomosha qilgani ketdi. Amaki-sining o'g'li Lazizdan ham gavdali, barzangi bola ekan. Uni ko'rgan tomoshabinlar bu safar Bunyod yengishiga biroz shubhalanishdi. Jang boshlangani e'lon qilinsa-da, raqiblar hamon bir-biriga hezlanib, davra aylanishardi. Lekin birinchi hujum boshlashga ikkovining ham yuragi betlamayotgandi. Nihoyat, ilk zarbani Botir yo'lladi, lekin Bunyod chap berdi. Shundan so'ng Bunyod ustiga ketma-ket yog'ilgan kuchli zarbalardan birini o'tkazib yubordi. Yigit bir muddat muvozanatini yo'qotib qo'ydi. Hammaning nafasi ichiga tushib ketgandi. Faqat ularning yonginasida turib kuzatayotgan, kechagi mushtlashuvdan keyin yuz-ko'zi ko'kargan Laziz xursand. Ammo Bunyod bo'sh keladigan bola emas. U darrov o'zini qo'lga olib, Botirga tashlandi. Biroq qanchalik harakat qilmasin, uning mushtlari Botirga ta'sir qilmasdi. Hatto bir safar Bunyodning qo'lini mahkam ushlab, biqiniga o'xshatib tepdi ham. Bunyod uning changalidan chiqishni uddaladi-yu, ammo og'riqning zo'ridan gandraklab yiqildi. Keyin u o'rnidan turib, jangni davom ettirishga ancha qiynaldi. Biroq har gal atrofdagilar undan umidini uzganda, Bunyod o'rnidan turar, zarbalarini qayerga yo'llayotganini bilmasa-da, chiranardi. Bu orada Botir ham yaxshigina kaltak edi. Ikkisiyam holdan toygan, biroq mushtlashuvning oxiri ko'rinmasdi. Bolalar tomoshaning avj pallasida, davradan ko'z uzmay tikilib turishardi. «Tezroq tugay qolsaydi, onamning oldiga borishim kerak». Shodmon shu xayollar bilan ich-etini eb, jangni

kuzatdi. Kun tushdan oqqan, Shodmon ortiq qololmasdi. Qanchalik qiziqmasin, u bolalarning orasidan sirg'alib chiqib, ortga qaytishga majbur bo'ldi. Ketayotgan yerida Hikmatning gapi xayolini bo'ldi:

— Shodmon, oxirigacha o'tirmaysanmi? Qizig'i endi boshlanyapti.

Shodmon «yo'q» ishorasini qildi-da, yo'lida davom etdi.

— Hov, to'xta...

Tanish ovoz. Bola ortiga o'girildi. Bunyod gapirgan ekan. U davrada qo'llarini chalishtirib o'ynatar, Botir esa erda yuztuban yotardi.

— Nima, meni yengiladi deb o'ylaganmiding?

Nima gapligini tushunmagan Shodmon bamaylixotir javob berdi:

— Yo'q.

— Unda nega ruxsat bermasimdan turib, juftakni rostlayapsan?

— Shunday o'zim... ketishim kerak.

Shu payt kimdir luqma tashladi:

— Tinch qo'ying uni, Bunyod aka. Maktabda farroshlik qiladi, ishiga kechikyapti.

Hamma baravariga kulib yubordi. G'olib Bunyod qo'llarini ko'ksiga chalishtirib kerildi. To'planganlarning ichida Laziz, Botir va Shodmonninggina ahvoli yomon. Bolakay nima deyishini bilmay, yo'lida davom etdi. Hafsalasiz qadam tashlaganidan, maktabga qosh qorayganda yetib bordi. Onasi hamma ishni qilib bo'lgan ekan. Shodmon bu gal o'zi bilan bo'lib, onasini koyimadi. To uyga yetgunlaricha

churq etmadi. Xayoli parishonligidan onasining mazasi yo'qligini ovqatlanishga o'tirganida payqadi. Ayol qiynalib nafas olar, astmasi siqayotganidan hansirardi.

— Ona, mazangiz bo'lmayaptimi?

— Yo'q, yaxshiman. Nafasim qisayotgani havodan bo'lsa kerak.

— Ahmad do'xtirni chaqiraymi?

— Shartmas, o'tib ketadi.

Mehri opa tuni bilan nafas olishga qiynalib, hansirab chiqdi. Shodmonning ko'ziga uyqu ilinmay, ayolning boshida o'tirib chiqdi. Ertalab maktabga bormoqchi e masdi, lekin onasining qistovi bilan xohlamaygina yo'lga tushdi.

— Bugun ishga bormang, o'zim tozalab kelaman.

— Haliyam biror ish qilishga holim yo'q. Faqat direktorning «Nega ishga kelmadingiz?» deb koyishi yomon-da... Uyda bekor zerikib o'tirgandan ko'ra, odamlarga chalg'ib yurganim yaxshi...

Mehri opaning kuni bo'yi uyda siqilib o'tirishini ko'z oldiga keltirib, Shodmon indamadi.

Darslar tugagach, to'g'ri onasining yoniga oshiqdi. Hali maktabda odam gavjum, bolalar tarqab ulgur-mabdi. Shodmon tepa qavatga ko'tarildi. Ammo bu yerdagi ahvolni ko'rib, rangi uchib ketdi. Axlatlar har tomonga sohib tashlangan, chelakdagi suv polga ag'darilgan. Mehri opa kimdir kelib qolishidan cho'chiganday, shosha-pisha ularni yig'ishtirardi. Bolaning hayrati oshdi:

— Ona, kim bunday qildi?..

Shodmonning kelganini payqamagan Mehri opa cho'chib tushdi:

— Hech kim... Bilmasdan qoqilib ketibman...

Qanchalik ishontirishga urinmasin, ayolning ko'zlari bunday emasligini aytib turardi.

Shodmonni tanib qolgan boshlang'ich sinf o'quvchilaridan biri unga nima bo'lganini oqizmay-tomizmay aytib berdi:

— Bunyod bilan o'rtoqlari kelgandi. O'shalar qilishdi...

Shodmonning yuragidan nimadir uzilib, bo'g'ziga tiqildi. Qo'llari beixtiyor musht bo'lib tugildi: «Nomard!» Bolaning bo'g'ziga nafrat va alam tiqildi.

Onasi nimalardir der, biroq ularning hech biri Shodmonning qulog'iga kirmasdi. U shitob bilan zalni tozalab tashladi. So'ng xavotirga qo'ymaslik uchun Mehri opani uyga kuzatib qo'ydi. Onasini uyda qoldirgach, o'zi ko'chaga otildi. Nima qilmoqchiligini, qayerga borayotganini o'zi ham bilmas, faqat ayni paytda nafrati ichiga sig'mayotgandi.

U Bunyodlarning uyi yonida to'xtab, darvozani ikki-uch marta qarsillatib urdi.

— Kim u?

Ovoz Bunyodniki. Shodmon aynan shuni kutgandi.

— Men Shodmonman, chiq bu yoqqa.

O'zini birinchi marta sensirashganidan Bunyod hayron bo'ldi:

— Sen tirrancha meni sensiradingmi?

Darvozani ochishi bilan Bunyodning birinchi savoli shu bo'ldi.

— Sen hatto sensirashga ham arzimaysan!..

— Nima deding?..

— Nomardsan, — Shodmon achchiq kinoya bilan kuldi. — O‘chingni men qolib, onamdan oldingmi?

— Hov churvaqa, kim bilan o‘ynashayotganingni bilmayapsanmi?

Bunyod gapini tugatmasdanoq Shodmon ilib ketdi:

— Bilaman, mushti zo‘r qo‘rqoq bilan o‘ynashyapman.

— Kaltak yeging kelgan, shekilli...

— Zo‘rligingni ertaga hammaning oldida isbotlaysan.

Shodmonning gapi Bunyodning endigina ko‘tarilayotgan mushtini qaytardi. U bir muddat vaziyatni to‘liq anglab ulgurmay, karaxt bo‘ldi. So‘ng do‘pposlash fikridan qaytib, uni mazax qilishga o‘tdi:

— Xo‘sh, nimangni tikasan?

— Meni o‘rtaga qo‘yadigan hech narsam yo‘q. Agar yutsang, bir umr yugurdaging bo‘laman. Aytganlaringni so‘zsiz bajaraman.

Bunyod xoxolab kulib yubordi:

— Agar sen yutsang-chi?

— O‘rtoqlaring bilan borib onamdan kechirim so‘raysan. Hammaning oldida.

— Obbo, itvachcha-ey... — Bunyod bolaning elkasidan turti. — Bo‘pti, kelishdik. Ertaga tushda, doim yig‘iladigan joyda ko‘rishamiz. Faqat bir shart: kaltak yesang ham, «ona»lab yig‘lamaysan.

Ustidan qanchalik qotib kulmasin, Shodmon hech narsa demadi. U Bunyoddan yengilishini o‘ylamasdi ham. «Qo‘limdan kelgancha harakat qilaman. Urib dabdalamni

chiqarsayam, so‘zimdan qaytmayman. Onam uchun oxirigacha chidayman...»

Bu xabar hali o‘zi maktabga yetib bormasidan, mahallada duv-duv gap bo‘ldi. Shodmonni hamma hayrat bilan kutib oldi. Hikmat hovliqqancha yoniga yugurib keldi:

— Sen bolaning esing joyidami? Kelib-kelib, Bunyod bilan o‘ynashasanmi? Nima, o‘lging kelyaptimi?

— Uni o‘ldiraman!..

Shodmonning javobidan Hikmat angrayib qoldi.

Ikki soatli darsni ikki asrday o‘tqazdi. Qo‘ng‘iroq chalinishini bolalar orziqib kutardi. Nihoyat, chalindi. Go‘yo Shodmonning qismatiga urilgan bongday...

Bu safargi jangda doimgidan ham ko‘proq odam yig‘ildi. Ular o‘zlarini mushtlashuvga emas, mazxaraboz tomoshasiga yig‘ilganday tutishardi.

Bunyod Shodmonga qarab sovuq iljaydi:

— Boshlaymizmi, bolakay?..

Aslida, Shodmonning yuragini vahima qoplab olgan, u nima bo‘layotganini idrok etolmas, ammo qilayotgan ishidan afsuslanmasdi.

— Men allaqachon tayyorman!

— Senga bir imkoniyat bermoqchiman, bekorga o‘larday kaltaklanishingni xohlamayman. Keyin men uchun o‘zimdan ojizlar bilan mushtlashib o‘tirishning foydasi yo‘q. Agar hozir tiz cho‘kib, kechirim so‘rasang, jangni bekor qilamiz...

— Iltifotingni pishirib e, men so‘zimda turaman.

Boshqa soʻzga oʻrin qolmadi. Hamma jim, hatto koʻchada pashsha uchgani seziladi.

— Mayli, oʻzing bilasan. Keyin mendan oʻpkalama.

Jang boshlandi. Boshqalar singari avval Shodmon qoʻl koʻtarmadi. U oʻqday nigohlarini bir muddat Bunyoddan uzmay turdi. Unga hozir onasi oldidagi burchidan boʻlak narsa koʻrinmaydi. Bunyod vaqtni choʻzib oʻtirishni istamadi. U hammasiga bir zarb bilan nuqta qoʻymoqchi boʻldi. Lekin zarba qanchalik ogʻir boʻlmasin, Shodmon yiqilmadi. Xuddi hech narsa boʻlmaganday, Bunyodga tashlandi. Bu bolaning kichik jussasiga sigʻmaydigan ulkan kuch, ammo u Bunyodni yengishga etmasdi. Bunyod payt poylab, Shodmonning naq elkasiga tepdi. Bolakay ikki-uch metr nariga uchib, yerga yuztuban yiqildi. Bunyod Shodmonning oldiga choʻk tushib, sochlarini changallab, boshini koʻtardi:

— Yengildingmi?

Burni va ogʻzidan qon oqayotgan bolakay zoʻrgʻa javob berdi:

— Hech qachon!..

U gandiraklab, sekin turdi. Avvalgisidan pasaygan boʻlsa-da, hayron qolarli vajohat bilan yana Bunyodga tashlandi. Bu safar Bunyod uni yelkasidan oʻtkazib otib yubordi. Shodmon gursillab tushdi.

— Endi-chi? — soʻradi Bunyod.

Javob berolmagan boʻlsa-da, oʻrnidan turishga intilishi bolaning hali yengilmaganidan dalolat edi.

Bunyod keyingi zarbalarini Shodmon oʻziga kelishini kutmasdan ketma-ket yoʻlladi. Ogʻriq bolakayning jon-

jonidan o'tar, ammo har yiqilganida, yerdagi chimlarni g'ijimlab, yana o'rnidan turaverardi. Atrofdagilar esa jim, oxiri nima bilan tugashini kutishardi.

Bolaning boshiga yo'llangan musht hammasidan o'tib tushdi. U chalqancha yiqildi. Shunda ham Shodmon o'rnidan turishdan charchamas, Bunyod esa peshonasida ter yiltirab halloslardi.

— Oxirgi marta so'rayapman, yengildingmi?

Shodmonning ortiq majoli qolmagandi. U bor kuchini to'plab, boshini sekin qimirlatgancha «yo'q» ishorasini qila oldi, xolos.

Kutilmaganda, Bunyod:

— Men yutqazdim, — dedi Bunyod barcha eshitsin deb, davrani aylanarkan. — Ertaga hammaning oldida uning onasidan kechirim so'rayman... Bundan keyin Mehri opaning hurmatini joyiga qo'yamiz. Gapim gap.

Yig'ilganlarning barchasi hayratdan quloqlariga ishonmadi. Shodmon Bunyodning faqat shu so'zlarini eshitdi. «Mehri opani hamma hurmat qiladi», degan so'zlar uning qulog'i ostida qayta-qayta jarangladi. Keyin nima bo'lganini eslolmaydi.

U ko'zlarini g'ira-shira ochganida tepasida onasi o'tirardi. Shodmonning o'ziga kelayotganini ko'rib, mushtipar ayol yig'lab yubordi.

— Yig'lamang, ona.

Mehri opa ko'z yoshlarini artayotgan o'g'lining qo'llarini o'pib yig'ladi.

— Yig'layotganim yo'q, bu sevinganimdan. Nima keragi bor edi, tentakkinam?



— Nimani?

— O‘rtoqlaring kechadan beri biznikida. Hozirgina ketishdi. Hammasi mendan kechirim so‘radi...

Bola yengil nafas oldi. Ayni damda u go‘yo qayta tug‘ilganday edi.



ODAMIYLIK

Bug'doy o'rishni kecha, salqin tushgandan keyin boshlagan bobom va akam choshgohgacha, quyosh tepamizga kelib, kunni qaynatguncha davom ettirishdi.

Bobom egilaverganidan qotib qolgan bellariga qo'lini tirab, boshini ko'tarib, akamga yuzlandi.

— Endi bo'larov, bolam.

U kishining oftobdan qoraygan ajin to'la peshonasida ter yiltirardi.

— Juda charchadingiz-a? Yordam bermang, o'zim o'raman desam ko'nmay siz.

Akam terlab ketganidan, ko'ylagini yechib boshiga tashlab olgan, badani bug'doy poyalaridan yuqqan chang bilan to'la edi.

— Qari ko'ringanim bilan hali tetikman.

Bobomning gaplaridan berilib kulayotganimizning ustiga momom kelib qoldi.

— Hay, bo'ldi qilinglar o'rishni. Tag'in saraton oftobi boshdan o'tib, issiq urmasin. Ovqat pishgan, sovimasdan yeb, damni olinglar. Indamasam, daladan beri kelmaydi bular, o'rishni kecha boshlashgandi, eshak ham buncha ishlaydi.

Momom qarib qolgani uchun, qomatini biroz bukib yurardi. U kishi ikki qo'lini orqasiga tashlagancha, yana nimalardir deb, chaylaga qarab ketdi.

Bobom buvimning orqasidan qarab qolarkan boshini chayqab, kulib qo'ydi.

— Kampirning o'zi qarisayam, jag'i hech qarimaydi. Yoshligida qanday bo'lsa, haliyam o'zgarmagan.

— Sizni o'ylayapti-da, bobo, — deya akam menga qarab ko'zini qisdi.

Bobom esa o'zini eshitmaganga olib, sekin bug'doyzordan chiqib keta boshladi.

Juda ochiqqanimiz uchunmi yoki chindanam ovqat mazalimidi, ishtaha bilan yedik. Ovqatlanib bo'lganimizdan keyin, akam mollarni pastlikdagi ariqdan sug'o-rishga olib ketdi. Charchaganidan bobom tut soyasidagi supada uxlab qoldi. Momom esa o'zining ishlari bilan o'choq boshida kuymalanardi. Yagona bekorchi menman.

Tush payti juda zerikarli-da. Nima qilaringni bilmay-san. Kattalar charchaganidan dam olishadi. Bu adirlarda men tengilar yo'q. Atrof tuya o'rkachidek cho'zilgan tepaliklar va pishib, sarg'ayib ketgan bug'doyzorlardan iborat. Kun qaynayotgan bo'lsa ham, bu oradagi eng katta tepalik ustiga chiqib, o'zimning har kuni qiladigan ishimni davom ettirdim. Bahorgi o'tlar qurib, xashakka aylangan tap-taqir do'nglik. Undan butun dasht kaftday ko'rinadi. Oxiri yo'q yalangliklar... Hozir uni ko'rgan odam, bu erlarni bahorda yam-yashil ko'rpaga o'ranganinini tasavvur ham etolmaydi. O't-o'lan qurigan, bug'-

doylar etilganidan, to'kilaman deydi. Yalang'och tepaliklar orasida yagona ko'zga tashlanadigan narsa bu — bizning omonatgina yozgi uyimiz.

Bir payt adoqsiz cho'l uzra so'ppaygan tepaliklar bag'ridagi ilonizi yo'lda sekin chayqalayotgan mashinaga ko'zim tushdi. Ortidan ko'tarilayotgan chang va onda-sonda quyosh nuri tushib, yarqirab ketayotgan oynalarini hisobga olmasa, uning mashina ekanini bilib bo'lmaydi. U jaziramadan bo'g'riqqan odamlar singari horg'in odimlaydi. Qo'llarimni iyaklarim ostiga tirab, zavqlanib kuzataman. Chunki bu do'ngliklarga onda-sonda keladigan mashinalarni aytmaganda, boshqa texnika chiqmaydi. Nihoyat, yarim soatlardan keyin, u men turgan tepalik yonidan o'ta boshladi. Men esa mashinaning tezda ketib qolishini istamasdim. Agar sekinroq yursa, ko'proq tomosha qilardim-da.

To'satdan nimadir qarsillab, shundoq ham sekin yurib ketayotgan mashina taqqa to'xtadi va yo'ldan ko'tarilgan quyuq changdan bir muddat ko'rinmay qoldi. Buzilgan bo'lsa-ya! Qo'rqib ketdim. Asta tepalikning yo'lga teskari tomoniga e maktladim. Meni ko'rib qolishmasa bo'lgani. Chunki hozirgina mashinaning yurmay qolishini xohlagandim. Yashirinib olgach, yana kuzatdim. Mashinadan avval bir yigit, izidan esa qiz tushdi. Ularning nima deyotganini eshitmayotgan bo'lsam ham, baqir-chaqirlaridan janjallashayotganini angladim.

— U yerda dumalab nima qilyapsan, bolam?

Yuragim orqaga tortib ketdi. Chaqirgan bobom ekanini bilib, biroz tinchlandim va pastga sekin qaradim.

U kishi kaftlarini peshonasiga soyabon qilib menga tikilardi. Sir boy bermaslikka harakat qildim.

— Hech narsa.

— Hech narsa, — bobom ishonqiramadi va atrofga qarab mashinani ko‘rdi. — Anavini kuzatyapsanmi?

— Uning nimaga to‘xtaganini bilmayman.

— To‘xtab turibdimi yo buzildimikan?

— Bilmadim. Lekin nimasidir qarsillab ketdi, — deya yonlariga tushib bordim.

— Musofirga o‘xshaydi. So‘raylik-chi, bizdan biror yordam kerakmasmikan?

Endi mashinani oldidan ko‘rishimni o‘ylab, xursand bo‘lib ketdim.

— Sen qayoqqa? — bobom chopqillab o‘zidan oldinga o‘tib ketganimni ko‘rib hayron bo‘ldi. — Borib uxlasang bo‘lmaydimi, shu issiqda nima qilasan halloslab?

Indamay yerga qarab qolganimni ko‘rib, u kishi noiloj rozi bo‘ldi.

— Hormanglar, yo‘lovchilar, — dedi bobom ularga yaqinlashgach.

Boya mashinani tuzatmoqchi bo‘lib u yoq, bu yog‘ini kovlagan, lekin qo‘lidan kelmagach, asboblarni har tomonga qaratib otgan yigit o‘rnidan ham turmay so‘rashdi.

— Assalomu alaykum, salomat bo‘ling.

— Ulovlaring buzildimi?

— Ha, shunaqa bo‘lib qoldi.

— Oftob rosa toliqtiribdi-ku.

— Asti so‘ramang.

Men ularning gapiga e'tibor bermayman. Mashinaga yonginasidan turib tikilish bilan bandman.

— Zarari yo'q. Bizning uy shu tepalikning orqasida. Tag'in meni uchratganing yaxshi bo'ldi. Kechgacha urinamiz, soz bo'lmasa, buguncha menikida qolasizlar. Ertaga xudo poshsho.

Men mashinani tomosha qilish bilan band bo'lsam ham, bobomning gapidan keyin, o'sha yigit yonidagi qizga shivirlaganini eshitdim.

— Bu devonaning uyyiam basharasiga o'xshasa, kechqurun qanday uxlashimni tasavvur qilyapman.

— Unaqa de mang,bizni tanimasayam,yaxshilik qilaman deyapti.

— Undan ko'ra, birorta mashina ustasini topib bersa bo'lardi.

— Qiziqmisiz, cho'lning o'rtasida mashina ustasini qayerdan topadi?

Qiz gapirib bo'lib, kulib qo'ydi.

Ularning nima deganini unchalik anglamagan bo'lsam ham, bobom haqida noma'qul gap aytganlarini sezib, olaqarash qildim.

— Shoshayotganlaringni tushunaman, lekin peshinda bu yerlardan biror ulov o'tishi gumon. Qiynalib qolmanglar deyman-da. Dasht oftobi ursa, yaxshigina mazangiz qochadi.

Bir chekkada jim turgan haligi qiz gapga aralashdi. Qo'lidagi ro'moli bilan yuzini tez-tez yelpiyotganidan, hammadan ham ko'proq issiqdan u qiynalayotgani ko'rinib turardi.

— Siznikiga borsak, uydagilaringizni bezovta qilib qo‘ymaymizmi?

— Nimaga bezovta bo‘larkanmiz, qizim? Yo‘l azobi — go‘r azobi deyishadi. Qo‘limdan shundan boshqa yordam kelmasa.

— Mashinam shu yerda qolaveradimi?

— Qo‘yaver, bolam. Unga hech kim tegmaydi. Qishloqda te mir-tersakni tushunadigan bir qo‘shnim bor. O‘shani olib kelib ko‘rsatamiz.

— Te mir-tersak deydimi, savil, — yigit qiz tomonga qarab, og‘zining bir tomonini qiyshaytirib kuldi.

— Amaki, uyingiz qayerda o‘zi?

— Manavi tepaning orqasida.

— Ustani qishloqdan qanday chaqirtiramiz?

— Nevaram mollarni suvlagani pastga endirib ketgan. Kelib biroz nafas rostlasin, qishloqqa yuboraman.

— Lekin kechgacha biz kutolmaymiz-da, vaqtimiz kam.

— Bir ilojini qilarmiz.

Ular suhbatlashib, ancha uzoqlashgan bo‘lsa ham, men hamon mashina yonida kuymalanardim.

— Aziz, bo‘ldi, issiqda tentirama. Kechasi o‘rimga yordamlashasan.

Bo‘ynimdan xuddi birov sudraganday bo‘lib, mashina yonidan istamaygina ketdim.

Tuproq yo‘lda qadamlarini ehtiyotlab tashlayotgan qiz qiziqsinib so‘radi:

— Bu cho‘lda anchadan beri yashaysizmi?

— Tug‘ilganimdan beri. Otam bilan bolaligimdan lalmi dehqonchilik qilaman. Faqat qishda qishloqqa

qaytamiz. Butun umrim shu yerda o'tdi. Hozir nevaralarim qanotimga kirgan. Keyin bu yerlar cho'lmas, qizim. Sen bir vaqt topib bahorda kel, o'shanda ko'rasan. Bolam, otingiz nima edi? — dedi bobom yigitga yuzlanib.

— Meni ismim Ozod.

— Ha, yashang Ozodbek. Ana bizning uyimiz, — bobom qo'llarini loysuvoq tomli, yonida bittagina daraxt so'ppaygan uy tomonga cho'zdi.

Yigitning qizga murojaatidan uning oti Oqila ekanini bilib oldim.

Bizning ovoqimizni eshitib, ichkaridan momom chiqdi. Mehmonlar bilan ko'rishgach, bobomga savol nazari bilan qaradi.

— Yo'lda mashinasi buzilib qoldi, shu issiqda ko'chada turmasin, deb uyga boshlab kelaverdim.

— Shunday de maysizmi? To'g'ri qilibsiz. Qani, mehmonlar, uyga kiringlar. Bu dashtning yo'llari qurib ketsin. Bechora yo'lovchilar dodlagani-dodlagan.

Ozod aka qizga yana norozilanib shivirladi:

— Kampiri cholidan ham ezma, bundan battari bo'lmaydi.

Qiz hech narsa de madi.

Mehmonlar uyga kirgach, momom qari bo'lsa ham, pildirab, ko'rpacha to'shadi. Oqila opa yordam berishga qanchalik urinmasin, qo'ymadi.

— Qizim, sen yo'lda toliqqansan, damingni ol. Hozir muzdaygina ayron olib kelaman.

Momom ularni yolg'iz qoldirib, dasturxon taraddudiga chiqib ketdi.

— Bu uyda qanday yashashar ekan-a? — Ozod aka boshi tegay deb turgan shiftga va loysuvoq devorlarga tikildi.

Oqila opa elka qisib qo'ydi.

— Qaydam...

— Ishqilib, mashina soz bo'lsin.

— Tuzatolmasangiz, tunni shu erda o'tkazamiz.

— Menimcha, mashinada tunagan yaxshiroq.

Men mehmonlarga qiziqib, momomga qo'shilib tashqariga chiqmagandim. Ozod akaning ko'zi tushib qoldi.

— Qalay endi, shumtaka?

Uning hazili unchalik yoqmadi, turib ketayotgandim, momom kelib qoldi.

— Sen qayoqqa? Mehmonlarni zeriktirmay o'tir.

Menga tanbeh bergach, Ozod akaga yuzlandi:

— Bolam, tortinmay, o'zlaringni uylaringday his qilinglar bu yerni, be malol yeb-ichib, dam olinglar. Nabiram qaytsin, usta olib kelishga qishloqqa jo'naydi.

— Rahmat, xola. Ovora bo'lmang.

— Voy, nima ovarasi bor ekan? Suqsurday qizimni bir mehmon qilsam, qilibman-da. Agar shu bolam kuyoving bo'lmaganda, seni o'zim kelin qilardim.

Men momomning gaplariga tushunmadim. Lekin ularning hammasi berilib kulganiga qaraganda, qiziq gap bo'lsa kerak. Momom kulib-kulib yana chiqib ketdi.

— Oqila, shu kampirga kelin bo'l. Uy-joyiga qarab bo'lajak kuyovbolani tasavvur qilaver.

Qiz shaqirlab kulib yubordi.

— Qo‘ysangiz-chi, Ozod aka. Har narsani hazil deb aytaverasizmi?

Oqila opa qovoqlarini osiltirib oldi. Lekin, menimcha, u aldayotgandi, chunki to‘mtaygani bilan xafaga o‘xshamasdi. Men kattalarga hech tushunmayman-da. Ba‘zan ularning qilayotgan ishlarini bilib bo‘lmaydi.

— Hazillashdim-ku, jinnivoy. Seni shu cho‘lda tashlab ketarmidim?

Shu payt eshik g‘iyqillab ochilib, ichkariga bobom kirdi.

— Mehmonlar, zerikib qolmadilaringmi? Hozir nevaram keldi. Omon bo‘lgurni qishloqqa jo‘natdim. Endi salqinlatib qaytadi-da.

— Rahmat sizga, amaki. Keling, biz bilan birga ovqatlaning.

— Yo‘q, qizim. Kun ozgina tashladi. Endi o‘rimga chiqishim kerak. Bug‘doy pishib ketgan. Tezroq yig‘ishtirmasak, to‘kilib uvul bo‘ladi.

Mehmonlar menga negadir yoqmadi. Bobomga qo‘shilib, chiqib ketdim. Chunki ularning gapirayotgan gaplari, o‘zlarini tutishlariga tushunmadim.

— Bobo.

G‘alla o‘rishga berilib ketganidan bobom chaqirganimni eshitmadi.

— Bobo.

Qo‘llaridagi o‘roqni yerga tashlab, menga o‘girildi.

— Chaqirdingmi, bolam?

— G‘alati odamlar ekan-a?

— Kimni aytyapsan?

— Anavilarni-da, — qo‘limni tepalik ustida turib, atrofnı tomosha qilayotgan Ozod aka bilan Oqila opa tomonga cho‘zdim.

— Ha, ularmi? Dashtni tomosha qilyapti-da. Ularga e‘tibor bermay, kel, o‘rganlarimni taxla. Vaqt o‘tib ketyapti. Bir garmisel tursa, hosil uvol bo‘ladi.

Ishning ko‘pligidan bosh qashlashga vaqt yo‘q. Ammo har-har zamonda haliyam tepalik ustida o‘tirgan mehmonlarga qarab qo‘yaman.

Akam qosh qorayganda qaytdi. Usta mashinani tuza-tishga tuni bilan urindi. Lekin hechsoz bo‘lay demasdi. Uni surishga yordamlashgani bobom o‘rimni ham tashlab keldi.

Te mir-tersaklarni titkilayverganidan,kiyimlari qora moy bo‘lib ketgan usta bobomga yuzlandi:

— Haqqul ota, siz borib ishingizni qilavering, bu savil hali soz bo‘ladiganga o‘xshamayapti.

— Bir g‘ayrat qilsak, ikki-uch kunlik ish qolgan. Mehmonlarni kuzatib, ko‘ngil xotirjam bo‘lsin. O‘rim qochib ketmas.

— Saraton shamolidan ehtiyot bo‘ling deyman-da.

Shoshayotganidan va mashinasi soz bo‘lmayotganidan Ozod aka diqqat bo‘layotgandi.

— Aka, o‘zi nimasi yetishmayapti?

— Bir-ikkita te mirini almashtirish kerak. Aksiga olib, hozir yonimda yo‘q. Yana qishloqqa tushib kelish kerak.

Ozod aka shoshib qoldi.

— Hozirmi?

— Unda ertaga kechgacha qolib ketasiz.

— Yo‘q, biz hatto ertagachayam qolib ketolmaymiz. Juda shoshyapmiz.

— Unda... bilmadim, uka. Qishloqqa g‘iz etib borib kelishga tagimda ulovim yo‘q. Haqqul ota iltimos qilib yuborgani uchun kelganman.

Ozod aka asabiylasha boshladi.

— Shodmon aka, siz asboblaringizning qayerdaligini ayting, o‘zim olib kelaman.

Akamning gapidan qotib qolgan usta unga hayron tikildi.

— Yana borib kelasanmi?

— Mehmonlar shoshilishyapti. Buyog‘i oqshom, havo salqin. Tez qaytaman.

— Shunday qiling, og‘ayni, umringizdan baraka toping. Sizniyam ko‘p ovora qilyapmiz.

Akam Ozod akaga qarab kulib qo‘ydi.

— Qo‘ldan kelgani shu.

Akam yo‘lga tushar ekan, bobom uning yelkalariga qoqdi.

— Kuchim yetguncha o‘rib turaman, sen yaxshi borib kel.

Momom mehmon deb izzatlab Ozod aka bilan Oqila opaga uydan joy qilib berdi. Biz Shodmon usta bilan tashqaridagi supada uxladik. Ko‘zim ilinayotganida ham, bobom bug‘doy o‘rishdan to‘xtamagandi. U kishini tushunaman. Qancha mehnat bilan etishtirgan hosilining uvol bo‘lishini istamaydi. Dalaning oxiri ko‘rinib qolgan, zo‘r bersa, ikki-uch kunda tugaydi.

Saharlab qandaydir shovqindan uygʻonib ketdim. Yonimda hech kim yoʻq. Momomning qargʻangan ovozi yoʻl tomondan kelardi. Oʻsha yoqqa qarab yugurdim. Akam qishloqdan qaytgan ekan, lekin negadir oyogʻini changallab yerga yotib olgan. U kishining yonida Shodmon usta girdikapalak. Momomning menga koʻzi tushishi bilan baqirdi:

— Aziz, bolam, chopqilla. Ozod akangni uygʻot. Akamni ilon chaqib olibdi de.

Karaxtligim haliyam tarqamagan, nima qilishni bilmay, bir muddat turib qoldim.

— Nimaga qaqqayasan, bormaysanmi tezroq?

Shodmon ustaning yoʻgʻon ovozi oʻzimga keltirdi.

Uyga qarab oʻqday uchdim va eshikni zarb bilan ochdim. Mehmonlar hali uygʻonishmagan ekan. Shoshganimdan Ozod akani silkilay boshladim. U kishi choʻchib uygʻondi va jahli chiqqanidan baqirib ketdi.

— Esing joyidami sen bolaning?

— Tezroq yuring, akamni ilon chaqib oldi. Momom tez kelsin deyapti.

— Qachon, qayerda chaqdi?

Men javob bermasdim, faqat qoʻllaridan ushlab tortqilardim. Ozod aka hech narsaga tushunmasa-da, ortimdan ergashdi.

Bizni koʻrgan bobom yonimizga yugurib keldi.

— Bolam, nevaramni ilon chaqib oldi. Kecha doʻxtirman deyotganding. Jon bolam, biror narsa qil.

— Bizni xudoning oʻzi senga yoʻliqtirdi. Umringdan baraka top. Faqat bunday turma, nevaramga yordam ber.

Momom ham Ozod akaga yolvorib, poyiga yiqilguday edi.

Ozod aka esa nima qilishni bilmas, atrofdagilarga alanglardi.

— Qanaqa odamsan o‘zi? — uning jim turganini ko‘rib Shodmon usta aralashdi. — Sendan yordam so‘rashyapti. Qaqqaymay, harakat qil.

— Mening soham boshqa.

— Hozir ilon chaqsa, davolaydigan doktorni qayerdan topamiz?

Usta asabiylashib baqirdi.

— Hozir urinib ko‘raman.

Akamning oyog‘ini ilon chaqqan joyidan tepasini mahkam bog‘lashdi. Zaharni so‘rib olib tashlashdi. Ozod aka yana nimalardir qildi. Uning tez-tez soatiga qarab qo‘yishidan, shoshilib diqqat bo‘layotgani sezilardi.

— Iloyim, qo‘lginang dard ko‘rmasin, bolam. Yaxshiyam, sen bor ekansan. Seni bizga xudo yo‘liqtirdi.

Bobom bilan momom Ozod akani tinmay duo qilardi.

— Ilon qaerda ekan?

— Haqqul ota, mehmonlar charchagan, ularni bezovta qilmay, o‘zimiz mashinani tuzatib qo‘ya qolaylik degandi. Falokatda, mashinaning yonidagi ilonni bilmay bosib oldi.

Shodmon ustaning zaharxanda gaplariga Ozod aka hech narsa de madi.

Uning shundog‘am kechga qolayotganidan jig‘i-biyroni chiqardi. Bu erdagilarning oldidan o‘tib ketmoqchiligini aytolmayotgandi, xolos.

Xavf ortda qolib, akamning o'ziga kelishini kutganimizcha, kun tushdan og'di.

— Endi, amaki, biz yo'lga tushmasak bo'lmaydi, — Ozod aka ming bir xijolat bilan gap boshladi. — Nabirangizning ahvoli yaxshi.

— Seniyam yo'ldan qoldirdik, uzr, bolam, — bobom chin ko'ngildan, qadoq qo'llarini ko'ksiga qo'yib, uzr so'radi. — Ko'ngildagiday mehmon ham qilolmadik. Lekin bir yo'lingiz tushsa, kirib o'ting.

Ozod aka narsalarini olgani uyga kirarkan, Oqila opaga shivirladi:

— Bu yoqlarga yo'limiz boshqa tushgilik qilmasin.

— Aytganingiz kelsin, narsalarni olib chiqib, tezroq ketaylik.

Ular mashinaga o'tirishgach, Ozod aka oynasini tushirib, sovuqqina xayrlashib qo'ya qoldi. Men kecha ketib qolishini istamayotgan mashina bizdan uzoqlasha boshladi. Lekin nimagadir bu safar uning tezroq ketishini xohladi.

Shodmon usta chuqur xo'rsinib bosh chayqadi.

— Eh odamlar, odamlar... Ikki kundan beri shularni deb tinchingiz yo'q. Ammo bularni shoshganini qarang. Odamgarchilik deganiyam qahatga uchrayaptimi, nima balo...

Bobom bilan momom esa uning gaplarini eshitmas, ikkisi ham mashinadan ko'z uzmay duo qilishardi:

— Ilohim, yo'llaring oq bo'lsin. Yaxshiligingiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin.

Shu kuni bobom bug'doy o'rmay, uzoq uxladi. Chunki garmsel qattiq turayotgandi.

MUNDARIJA

Ezgu an'ana.....	3
Burgutlar.....	5
Qorag'ordagi ov.....	18
Qasam.....	31
Ko'kyol.....	43
Lafz.....	65
Odamiylik.....	80



Muyassar Tilovova

BURGUTLAR

Hikoyalar

Nashriyot litsenziyasi №. 181. 08.12.11.
Terishga 16.09.2011 da berildi. Bosishga ruxsat 02.12.2011
da berildi. Bichimi 70x90 $\frac{1}{32}$. Ofset bosma usulida bosildi.
«Academy» garniturası. Shartlı b.t.3,51. Nashr-hisob t.3,81.
Adadi 20.000 nusxa. Buyurtma № 11-869.

«ADIB» nashriyotida tayyorlandi.
100027. Toshkent. O‘zbekiston ko‘chasi, 16-uy
Tel: (8371) 245-89-24.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi. 100129, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30.